

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

Ismoilova Dinora Xaitboy qizi

Mavzu: “Ming gumbaz shaxri minoralari” Rangtasvir.Manzara

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

Sherov D.R

Urganch-2017

MUNDARIJA

KIRISH.....3

I- BOB. TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA “MANZARA” JANRIDA KOMPOZITSIYANING TUTGAN O'RNI

- 1.1. “Manzara” janrida kompozitsiya ishlash qonun-qoidalari va uning tasviriy san'atdagi ahamiyati..... 8-11
- 1.2. Manzara janrining rassomlar ijodida yuksalishi..... 12-15
- 1.3. Tasviriy san'at darsida manzara janrida kompozitsiya ishlashning o'ziga xos psixologik xususiyatlari.....16-23

II- BOB. TARIXIY SHAXARLAR KO`RINISHI VA KOMPOZITSIYASINING BAJARILISH JARAYONI

- 2.1. Tarixiy shaharlar kompozitsiyasini ishlashda minoralarning ahamiyati.....24-38
- 2.2. “Ming gumbaz shahri” Xivada joylashgan imoratlar ko`rinishining o`rganilishi.....39-75
- 2.3. “Ming gumbaz shahri minoralari” kompozitsiyasini bajarilish jarayoni.....76-77

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ijtimoiy ong shakllaridan biri - san'at-tabi'at va jamiyatda bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan voqea-hodisalarni badiiy tasvirlarda ifodadanishidir. Tasviriy san'at o'zida moddiy olamning umumiy holatini va rivojlanishini aks ettirib, odamlarga uni bildiririshda muhim vosita bo'ladi va ularni siyosiy, ahloqiy va badiiy jihatdan tarbiyalashning qudratli omili bo'lib xizmat qiladi. San'at voqelikning o'zida ifodalash uslubi va xarakteri, mazmuniga ko'ra tasviriy san'at, me'morchilik, adabiyot, musiqa, sirk, teatr, kino, radio-televideniya kabi turlarga bo'linadi.

Tasviriy san'atda manzara janrida san'at asari yaratishning eng ijobiy va muhim xususiyati shundaki, u fandan farqli o'laroq voqea va hodisalarni tushunchalarda emas, balki sezgi va his bilan idrok qilinadigan shakllarda, tipik-badiiy obrazlarda ifodalaydi.

O'zbekiston tasviriy san'atining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini, har tomonlama ilmiy va ijodiy o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. "Bugun bizning oldimizga shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, - degan edi O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov, - biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, ilmiy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etmoqimiz kerak."¹ Shu maqsadda Respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning har tomonlama jahon andozalari asosida rivojlantirishga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, umuminsoniy qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. San'at, xususan tasviriy san'at istiqlool davrida mafko'raviy - g'oyaviy, ma'naviy olamning tarkibiy qismi sifatida u millat hayotidagi siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy

¹ "Xalq ta'limi" jurnali 1992 yil, 10-12 son 1-bet.

o'zgarishlarga plakat kabi tashviqot - targ'ibot vositalariga o'xshab tezkorlik bilan javob bera oladigan ijodiy targ'ibotlaridan kelib chiqqan holda davom etmoqda.

Ko'p asrlik tarixga ega O'zbekiston tasviriy san'atida manzara janrida yaratilgan san'at asarlari murakkab va serqirra badiiy obrazli tizimdir.

Boshqa tasviriy san'at turlari kabi, manzara janri ham doimiy rivojlanishda. Ushbu janrning psixologik xususiyatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borilib, tasviriy san'at tarixini kundan-kunga yangi ma'lumotlar bilan boyitmoqda.

Yuqoridagi fikrlarni muxtasarlab quyidagilarni ta'kidlash joiz.

Milliy istiqlol tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy ma'naviy-madaniy yangilanishida o'ziga xos yo'lni tanladi va bu jarayon bosqichma-bosqich davom etmoqda. Shunday ezgu maqsadlarni amalga oshirish mamlakatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan jamiyatni barpo etish, yurt taraqqiyotini ta'minlash, yoshlar qalbiga va ongiga milliy istiqlol mafko'rasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Shunday ekan, har bir jamiyatning ijodkor qatlami o'zining o'rinbosarlari bo'lgan yosh avlodning kelajagi uchun qayg'urishi va g'amxo'rlik qilishi zarurdir.

Ajdodlarimiz yaratgan buyuk san'at asarlari, madaniy-ma'rifiy boyliklar xalqimiz, ayniqsa yosh avlod uchun katta tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan ushbu bitiruv malakaviy ishida tasviriy san'at mashg'ulotlarida "Ming gumbaz shahri minoralari" manzarasi mavzusida kompozitsiya ishlashni keng miqyosda o'rganib, ta'lim jarayonlarining yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan o'quv mashg'ulotlarida o'qituvchi – o'quvchilarni ushbu janrda asar yaratish orqali tabiatni, ekologiyani, shuningdek, atrof-olamimizni o'rab turgan jamiki tabiat unsurlarini asrab-avaylash bilan birga ulardan bahra olish san'atiga ega bo'lishni taklif qilinadi.

Tanlangan mavzuning dolzarbiligi shundaki, manzara janrida yaratilgan asarlar Mustaqillik yillariga kelib, san'at darajasida yuqori mavqega erishib borayotganligiga qaramasdan bugunga qadar ushbu san'at turi va unda ijod qiluvchi usta rassomlar ijodi ilmiy jihatdan o'quv mashg'ulotlarida ilg'or texnologik yondashuvlar asosida o'rganilmagan. Ushbu san'at turi borasida dars jarayonida yangicha pedagogik

yondashuvlar asosida nazariy ma'lumot beruvchi manbalar yo'qligi rassomchilikning ilmiy-ijodiy, nazariy va amaliy ahamiyati sust darajadaliqidan dalolat beradi. Shu bilan bir qatorda ushbu sohani keng qamrovda namoyon etuvchi ilmiy manbalarni ommaga joriy etish masalalarini taqozo etadi.

Mavzuning dolzarbligi yana shunda ko'rinadiki, o'zbek xalqining qadimdan shakllangan rassomchilik san'ati o'zining xilma-xil turlari bilan bir-biridan alohida ajralib turadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishim mavzusini tasviriy san'at darslarida "Ming gumbaz shahri minoralari" manzarasi mavzusida kompozitsiya ishlash deb nomladim. Ushbu mavzuni hozirgi zamon o'quvchilariga to'la javob bera oladigan darajada tashkil etiladigan, pedagogik texnologiyalarga yondashgan holda keng yoritib berish, mavzuni o'quvchilarga pedagogik jarayon doirasida ochib berish ayni malakaviy bitiruv ishining dolzarb masalasidir.

Yuqorida zikr etilgan fikrlardan shuni ta'kidlash mumkinki, buyuk davlatning bugungi istiqbolini madaniyat va ma'naviyat haqida guvohlik beruvchi san'at muassasalarisiz tasavvur etish qiyin. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida» kitobida to'g'ri ta'kidlaganlaridek: «Biron bir jamiyat ma'naviy va ahloqiy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi».² Demak, san'at muassasalari – ma'naviyat va madaniyat manbai ekan, ulardan xalqimizning ma'naviyatini, madaniyati va san'atini ko'tarishda ta'lim jarayonlaridan samarali foydalanish bugunning dolzarb vazifasidir.

Mavzuning o'rganilganligi. Ko'p yillik pedagoglik faoliyati mobaynida rangtasvir va kompozitsiyadan mukammal o'quv tizimi shakllandi. Kompozitsiya hayot xodisalarini obrazli aks ettiruvchi vosita bo'lib o'quvchilardan ma'lum farmatda, oddiydan murakkab eskizlar bajarishga o'tish printsiplarini qo'ydi. Keyinchalik kompozitsiyani nazariyasi, amaliyoti va ularni o'qitish metodikasini asosiy printsiplarini ishlab chiqishda V.Favorskiy, A.Deyneka, K.Yuon, E.Kibrik,

² I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavsizlikka taxdid, barqarorlik sharlari va taraqqiyot kafolatlari». T. «O'zbekiston», 1997.

A.Alpatov, G.Nisskiy, F.Reshetnikov, D.Shmarinov kabi ulug' rus rassomlari o'z hissalarini qo'shdilar.

Bularning ichida K.Yuon, A.Deyneka, E.Kibrik, M.Alpatovlarning qoldirilgan ijodiy va ilmiy nazariyasi tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish o'rinli.

Mavzuning maqsad va vazifalari. Mavzuning maqsad va vazifalari yuqorida keltirilgan rassomchilikning ijodiy jarayonidagi davriy bosqichlarni o'rganib, bugungi kunga qadar rivojlanish jarayonini tadqiq etishini oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Tasviriy san'at o'zining funktsional vazifasidan kelib chiqqan holda, birinchi bo'lib jamiyatdagi o'zgarishlarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi. Tasviriy san'at va madaniyatning buyuk asarlari tarixiy shaharlar ko'rinishi ishlangan kompozitsiyaga bag'ishlangan qator tasviriy san'at asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy g'oya va mafko'raning shakllanish jarayonida o'zligimizni anglash bilan birga tabiatga mehr uyg'otuvchi san'at sohasiga aylandi.

Mavzuni yoritishda asos qilib olingan Xiva manzarasi kompozitsiyasini ishlash keng qamrovda batafsil o'rganilishi va ilmiy adabiyotlarga yanada ko'proq kirgizilishi kabi masalalar ilm-fan oldidagi qator vazifalardan biridir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi:

“Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsiya misolida manzara janrida kompozitsiya ishlashni pedagogik zaruriyat sifatida o'rganish;

“Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida kompozitsiya ishlashda buyuk rassomlar ijodiy merosidan foydalanishga erishish;

“Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali ma`daniy va ma`rifiy merosimiz bo`lmish tarixiy obidalarni tutgan o`rni va ahamiyatini ko`rsatish;

“Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsiyani dars jarayonlarida o'rgatishda yangi pedagogik texnologiyaning samarali usullari va vositalaridan foydalanish.

Mavzuning amaliy, ijodiy ahamiyati. Mavzuning ob'ekti ya'ni “Ming

gumbaz shahri minoralari” manzarasi uchun ishlangan kompozitsiyani pedagogik texnologiyalar orqali yoritish.

Mavzuning predmeti. Mavzuning predmeti “Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsion asarining mazmuni, tasvirlash usuli va vositalari;

“Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsiya yaratishda rassom pedagogning ijodiy qobiliyatlarini yuzaga chiqarishning pedagogik-psixologik asoslarni aniqlash.

Mavzuning ob'ekti. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ijodiy ob'ekti tabiat manzarasida ishlangan kompozitsiyadir.

Mavzuning malakaviy yangiligi. “Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsiya orqali uning pedagogik muammolari birinchi marta yaxlit holda o’rganildi. “Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsiyada ma`daniy-ma`rifiy merosimiz va o’zbek millatiga xos ijtimoiy hayotning o’rni va ahamiyati yoritib berilgan. “Ming gumbaz shahri minoralari” manzarasi mavzusida ishlangan kompozitsiyaning mazmuni, pedagogik vositalari va uslublari ishlab chiqildi.

I.BOB. TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARIDA “MANZARA” JANRIDA KOMPOZITSIYANING TUTGAN O'RNI

1.1. “Manzara” janrida kompozitsiya ishlash qonun-qoidalari va uning tasviriy san'atdagi ahamiyati.

Ma'lumki, san'atning turlari nihoyatda ko'p bo'lib, ular adabiyot, musiqa, kino, teatr, me'morchilik, amaliy-bezak, sirk, televidenie, tasviriy san'at hisoblanadilar. “Tasviriy” atamasi “tasvirilash” so'zidan olingan bo'lib, unda turli material, xususan, bo'yoq, tosh, gips, yog'och shuningdek, boshqa badiiy va tashlandiq materiallar yordamida har xil obrazlarni va narsalarning rasmi, haykalini ifodalash tushuniladi. Tasviriy san'at ilm-fan kabi dunyoni, hayotni, tabiatni, halqlar tarixini bilishga xizmat qiladi. Tasviriy san'atning paydo bo'lishi ibtidoiy jamoa davriga borib taqaladi. Bu vaqtda kishilar voqealarni, odam va xayvonlarni toshlarga tasvirini chizib, ularni kesib turli ko'rinish va mazmunda haykallar yasaganlar. Qadimdan kishilar san'at, tabiat xodisalari va kishilarning o'zaro munosabatlari, faoliyatlariga, xulqiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaganlar. Shu qatori tasviriy san'at asarlari kishilarga katta kuch bilan ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ham ega. Kishilar tasviriy san'at asarlarini tomosha qilish orqali ularda ifodalangan go'zallikni ko'rish orqali o'z hayotiga ana shunday go'zallikni kiritishga harakat qiladilar, asarlardagi qahramonona harakatlarni ko'rib ularga o'xshashga intiladilar. San'at asarlaridagi tabiat ne'matlaridan ruhiy ozuqa olish, hayotdan zavq olish orqali ulardan bahramand bo'ladilar, dam oladilar.

Ayniqsa, manzara - janrdagi asarlarda borliq, tabiatdagi ko'rinishlar haqqoniy aks ettiriladi. Manzarada faqatgina narsa va voqealar emas, balki musavvirning ichki kechinmalari ham ifodalanadi. Ayrim musavvirlar vodiylarni, tog'u-toshlarni tasvirlashga ishqiboz bo'lsalar, boshqalari dengiz manzarasini tasvirlashda mohirdirlar. Manzara janrida musavvirlardan O'.Tansiqboevning “O'zbekistonda mart”, “Jonajon o'lka”, “Mening qo'shig'im”, N.Kashinaning “Tog'da bahor”, Z.Inog'omovning “Arpa o'rimi”, “Choyga”, R.Temurovning “Bibixonimda bahor”, “Ulug'bek madrasasi” asarlari mualliflarga shuhrat keltirdi.

Rassomlar o'z asarlarida hayotni qanday ko'rsalar o'shanday emas, balki

undagi karakterli ko'rinishlarni tanlab oladilar, kerakmas ikkinchi darajali ko'rinishlarni tushurib qoldiradilar, muhimlarini bo'rttirib ko'rsatadilar. Tanishish va bo'rttirish orqali rassomlar narsa va xodisalarni kishilarning tafakkuri va hissiyotlariga samarali ta'sir ko'rsatishga erishadilar. Rassom borliqni shunchaki biladigan shaxs emas, balki u boy tasavvur va tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan kishidir. U o'z ijodida borliqni shunchaki aks ettiribgina qolmay, balki unga asoslangan holda nimalarnidir o'ylab topadi, tasavvur etadi va to'qiydi. Eng muhimi san'at asarlari o'z mazmunida borliqni aks ettiribgina qolmasdan, u rassomning g'oyalarini ifodalaydi, uni boyitadi, Shu bilan birga bunday asarlar tomoshabinga emotsional ta'sir ko'rsatish kuchiga ham egadir.

Tasviriy san'atda tabiat, shahar, industrial, interer ko'rinishlarini tasvirlanishi manzara janrga taaluqlidir. Manzara janridagi asarlarning ayrimlari bevosita tabiat manzarasini haqiqiy ko'rinishini tasvirlasa, boshqalari ijodiy tarzda xayolan ifodalangan bo'ladi. Ba'zan bu ikki hol bir asarda bo'lishligi ham mumkin. Manzara janrini paydo bo'lishi juda uzoqlarga borib taqaladi. Manzara tasvirlarining keng tarqalishini Qadimgi Sharq va Krit orollari misolida ko'rish mumkin.

Masalan, eramizdan avvalgi asr Beni-Xasandagi qabr tasvirida yovvoyi mushik ovi tasvirlangan. Bu janr esa mustaqil ravishda Xitoyda 6 asrda paydo bo'lgan. Evropa san'atida esa U'yg'onish davrida ilmiy asosda ya'ni chiziqli va xavo (rang) perespektivasi asosida shakllangan.

Manzara janrini ikki xili mavjud. Birinchisi mustaqil turi bo'lib, unda faqat manzara aks ettiriladi. Ikkinchi turida manzara biron tasvir fonida tasvirlanadi. Masalan, portretni orqa tomonida tabiat yoki shahar manzarasi tasvirlanishi mumkin.

Manzara janrida samarali ijod qilgan rassomlardan I.Levitan, I.Shishkin, O'.Tansiqboev, I.K.Ayvazovskiy, N.Karaxan kabilarni ko'rsatish mumkin.

Manzara janrining ko'rinishlaridan biri bu interer hisoblanadi. U binolarning ichki qism ko'rinishlarini ifodalaydi. Bu janr qadimgi Misr, Xitoy rassomchiligida uchraydi. Ular o'z ishlarida aql bovar qilmaydigan darajada aniqlik bilan perespektiva qonunlari asosida intererni tasvirlay olganlar.

Bu janrda ijod qilib Jotto, A.Verrokko, Leonardo do Vinchi, Rembrantlar

shuxrat qozonganlar.

Manzara janrining ikkinchi bir ko'rinishi bu marina janridir. Unda asosan dengiz ko'rinishlari va undagi xodisalar tasvirlanadi. Marina janrini shakllanishida I.Ayvazovskiyning xizmatlari katta bo'lgan. U o'zining umrini faqat dengiz ko'rinishlarini tasvirlashga bag'ishladi. Uning "To'qqizinchi val", "Chesmen jangi", "Qora dengiz", "To'lqinlar orasida" kabi asarlari jaxon tasviriy san'atida munosib o'rinni egalladi.

Manzara janri ko'proq rangtasvirda, qisman grafika va haykaltaroshlikda qo'llaniladi. Xaykaltaroshlikda manzara asosan uning relief turida ishlatiladi. Xaykaltaroshlikda manzara ko'rinishlari asosiy emas, to'ldiruvchi, qo'shimcha ahamiyat kasb etadi.

Kompozitsiya so'zi lotinchadan kompositio - yani predmetlarini bo'laklarini solishtirib, ma'lum tartibda yaxlit joylashtirish, g'oyaga muvofiq ijod qilish, bayon qilish, kompozitsiya tuzish demakdir.

Kompozitsiya, san'atning hamma turlarini negizida mavjud: adabiyot, teatr-kino, musiqa, tasviriy va amaliy san'at, arxitektura va hokazo.

Kompozitsiya o'quv predmet sifatida, qalamtasvir, rangtasvirdan keyin paydo bo'ldi va hozirda kompozitsiya kursi oliy ta'lim kasb-hunarleri o'quv rejalariga kiritilgan.

Pedagogika universitetlarining badiiy-grafika fakultetlarida kompozitsiya fani o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga kompozitsiya qonun, qoidalarini, xaqiqatni to'g'ri shaklda ifodalash usullarini o'rgatadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiya qalamtasvir, soya-yorug', rang, xavo va chiziq perspektivasi kabi tasviriy vositalar bilan yaratiladi.

Kompozitsiya kursi o'quvchilarni mustaqil ijodiy va pedagogik faoliyatida obrazli fikr yurgazishida katta ahamiyatga egadir.

Qalamtasvir va rang tasvirda rassom bevosita kompozitsiya asoslariga murojaat qiladi, uning qonun-qoidalarini bilmay turib kompozitsiya, qalam tasvir, rang tasvir mohiyatini tushunib etmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishida Xiva manzarisida kompozitsiya ishlashning

mohiyati, uning tasviriy san'atda rivojlanish tarixi, badiiy ijodning asosiy qonun qoidalari, vositalari va ularni o'rta maxsus ta'lim muassasalarida tasviriy san'at darslarida o'qitish metodlari haqida tavsiyalar tushunchalar beradi. Shuning uchun rassom - o'qituvchilarni kasbiy tayyorlashda kompozitsiya fanining eng murakkab va muhim fan sifatida o'rganish tavsiya etiladi.

Kompozitsiya qonun - qoidalarini chuqur bilish, qobiliyatli ijodkor ongiga sayqal beradi. Etuk rassomlarning ijodiy tajribasiga va kompozitsiyani o'qitish uslubiyatiga asoslanib Badiiy Akademiya tomonidan 1960-64 yillari nashr etilgan 8 jildli «Школа изобразительного искусства» nomli metodik qo'llanma tasviriy san'at manbaini boyitdi.

San'at asarlarini taxlil qilganimizda, kompozitsiya qoida va usullari o'z mohiyatini asta – sekin yo'qotib, yangi kompozitsiya qoidalari paydo bo'la boshladi. Badiiy asar yaratishda rassomlar tabiiy va ongli ravishda kompozitsiya qonunlariga rioya qilishadi. Har bir ijtimoiy – jamiyat san'at oldida yangi zamonaviy vazifalarni ko'ndalang qo'yadi.

Hozirgi vaqtda biz kompozitsiyani nazariy asoslarini ikki guruhga ajratib o'rganamiz.

1. Kompozitsiya qonunlari.
2. Kompozitsiya qoida va usullari.

Kompozitsiya usul (yo'llari). Kompozitsiyani asosiy usullaridan biri ritmni ifodalash, kompozitsiya mavzusi markazini aniqlash, simmetrik yoki assimetrik holati, massani ikkinchi plandagi kenglikdagi asosiy qurilmasini joylashtirish.

Ritm hayotda va san'atda mavjudligi rassom uchun yaxshi belgi, vositadir u bir elementni oraliqda galma–gal qaytarilishidir. Asar g'oyasini kompozitsiya tuzilishini idrok etishda ritm estetik obrazli tasavvur rolini o'ynaydi va kontrast rang, ton qonunlariga suyanadi.

Tasviriy san'atda kompozitsiyani rivojlantirish tarixi bilan tanishib, imkoniyat darajasida mavjud bitiruv malakaviy ishiga tegishli ma'lumotlarni tartibli ravishda o'rganib, kompozitsiya nazariyasi haqida bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'ldik.

1.2. Manzara janrining rassomlar ijodida yuksalishi.

Har qanday ijodkor o'tmishdagi rangtasvir san'ati ustalarini merosini va tajribalarini o'rganish bilan birga, tomoshabinga chuqur ta'sir etuvchi tasvir, kompozitsiya qonun uslubiyatini ham o'rganadi.

Amaliyotda kompozitsiyaning zarur unsurlari mavjud. Yaxlitlik qonuni, o'xshatish, kontrast qonun vositalarini mazmuni va g'oyaga bo'ysinish kompozitsiyani asosiy qonunlari deb hisoblanadi.

Bu qonunning belgilari E. Kibrikning kitobida to'la va chuqur analiz qilib berilgan kompozitsiyada birinchi yaxlitlik belgisi qonuniga rioya qilinganligi sababli, san'at asari bo'linmas bir butun bo'lib ko'rinadi.

Kompozitsiya yaxlitligida kompozitsiya elementlari shakl, xajm, «pyatno», oraliq harakter nusxa, imo – ishora bilan ifodalanadi. Misol tariqasida I.Repinning «Krestno'y xod v Kurskoy gubernii» kartinasi bir qarashda yaxlit «pyatno» shaklida ko'rinadi.

Kompozitsiyadagi omma – xaloyiq tasviri diogonal joylashgan bo'lib, kartinani to'rt burchagini bog'lab turadi. Nihoyatda ko'p sonli haloyiq jamoa tasvirlangan bo'lsada, har bir kishi harakteri, nusxasi salbiy, ijobiy obrazlar, sinfiy qarama - qarshiliklar, xullas rus jamiyati o'z ifodasini topgan.

Xaqiqat qonuni – asosan uchta belgi bilan ifodalanadi. Birinchi belgi bu badiiy asarda sodir bo'layotgan voqeani vaziyatning o'ziga xosligi. A.Savrasovning «Qora qarg'alar uchib keldilar», I.Levitaning «Oltin kuz», A.Kuindjining «Qayinzorda», A.Ro'lovning «Havo rang kenglikda» manzaralarida mazmun, nafosat, bilan birga rus tabiatini o'ziga xos obrazi tasvirlangan. Tipizatsiya qonunining ikkinchi belgisi – bu sodir bo'layotgan voqea mavzuini, harakat holatini vaqtini tasvirlaydi.

Yu.Pimenev «Yangi Moskva», «Ertangi ko'chalarda to'y» asarida ko'z oldimizda o'zgarayotgan harakatdagi zamonaviy shahar hayotini ko'rsatgan. To'y marosimini yo'nalishida kelajak hayotga shaxdam qadam tashlayotgan xalqlarning holatidir. Tipizatsiya qonunining uchinchi belgisi bu – yangilikdir.

Realistik san'at xaqiqatni to'g'ri ifoda etib qolmay, rassom his tuyg'ularini, estetik go'zallikni, tasavvurni jozibali tarannum etadi.

Badiiy obrazdagi estetik sifatlari, kompozitsiya echimidagi yangiliklar rassom tomonidan kashf etiladi.

Estetik kashfiyotlarni Mikelanjelo, Titsian, Rembrantning o'lmas asarlarida, A.Deyneka, A.Plastov, K.Yuon asarlarida kompozitsiya tuzilishini badiiy vositalaridan mavzuda yangilik tushunchasini ko'ramiz. «Novizna» - yangilik oqimini biz A.Kuindjining «Qayinzorlar», V.Polenlovning «Moskvadagi hovli», manzarasida ko'ramiz.

Qadimiy xitoy san'atida rassomlar tabiatni aks ettiruvchi asarlar yaratganlar.

Evropada manzara tarixi XVI – XVII asrlarda taraqqiy etdi.

Gollandiya manzarachi rassomlari tabiatni o'xshatib haqqoniy tasvirlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.

Rossiyada manzara janrining rivojlanishi XVIII asrga to'g'ri keladi. Moskva, Peterburg arxitektura yodgorliklari F.E.Alekseev tomonidan mahorat bilan tasvirlangan.

Manzara san'ati tashqi dunyoning go'zalligini aks ettirish bilan insonga ijobiy ta'sir etuvchi kuchga ega. Shuning uchun rassom tabiat olamini eng nozik, tipik holatlarini, rang garmoniyalarini anglab, tabiatga nisbatan bo'lgan estetik munosabatini bildiradi.

Manzara asarida inson shaxsi, aql zakovatini, ichki tuyg'ularini tasvir orqali qo'shiq qilib kuylaydi va tabiat obrazini yaratadi. Misol tariqasida I.Levitanning «Vladimrka», «Abadiy sokunlik uzra», I.Shishkinning, «O'rmon yiroqliklari», V.Meshkovning «Ural haqida o'ylar» asarlarini keltirish mumkin.

Tasviriy san'atdagi manzara janriga oid asarlari insonda tabiatga va go'zallik fazilatlarini shakllantiradi.

Rassomlar tarixiy va maishiy mavzudagi asarlarda bevosita manzaraga ham murojat qiladilar etyud, eskizlar yozadilar. Bu holda manzara kartinada qo'shimcha fon vazifasini o'taydi.

V.Vasnetsovning «Alyonushka» asari bunga misol bo'la oladi. Tabiiy go'zalligini, zamonasiga xos yangilik o'zgarishlarni K.Yuon, G.Nisskiy kabi rassomlar ham o'z asarlarida tasvirlab namoish etdilar.

50-70 yillarda O'zbekistonda manzara janrida ijod etgan rassomlar U.Tansiqboev «Issiq ko'l», «Ona o'lka», «Qayroqqum suv ombori», N.Qoraxon «Nanay yo'li», «Sijjakda bahor», R.Temurov Samarqand arxitektura manzaralari turkimini yaratdilar.

70-80 yillarda G'.Abdurahmonov, F.Toxirov, R.Choriev, K.Bogaduxov, M.Esin, Pudovkin kabi rassomlar manzara janrida samarali ijod qildilar. Hozirgi vaqtda ko'plab izlanuvchi iqtidorli rassomlar, A.Nuritdinov, O.Qozoqov, Z.Islomshikov, A.Mo'minov, A.Mirsoatov kabilar mustaqil O'zbekiston go'zal tabiatini madx etuvchi maftunkor manzaralarni yaratib kelmoqdalar.

Manzaraning bir necha turlari mavjud:

Shahar (Arxitektura), qishloq (tog') manzara, sanoat (zavod, fabrika, inshoot qurilish), tarixiy, romantik, lirik, panorama (ko'rinishida) manzaralari shular jumlasidandir.

Bularni har biri negizida ifodalovchi mazmun, g'oya yotadi. Shahar manzarasida shahar hayoti bilan bog'liq, arxitektura, transport vositalari, odamlar, oromgoh bog'lar hamda er osti o'tish joylari kompozitsiya tasviri uchun misol bo'la oladi.

Qishloq manzarasi, bepayon kenglik, tog' manzarasi, yaylovlar, qoya tosh, o'simliklar, vodiydagi jilvakor suvlar tasviri kompozitsiya negizini tashkil etadi. Sanoat manzarasi katta zavod hovlisi, suv ombori, ko'prik, metro qo'rilishi, texnika qurilish vositalari bilan bog'langan.

Lirik manzarada tabiatni «Erta tong», «Bahor» kabi mavzudagi tabiatni nozik, sokin go'zalligini, uning uyg'onish holatini ettiruvchi, insonga olam – olam quvonch baxsh etuvchi asarni ko'z oldimizga keltiramiz. Manzaraning kompozitsiya vositalari (belgilari): joyni tanlash, ko'rish nuqtasi, ko'rish chizig'i, fazoviy masofa, format, perespektiva, ritm, kolorit, yorug', refleks, kompozitsiya markazi shular jumlasidandir.

Bu janrda kompozitsiya yaratish uchun, qalamtasvir rangtasvir soxalarida mukammal bilimga ega bo'lish kerak. Naturadan dastlabki chizilgan chizg'i rangli etyudlar manzara kompozitsiyasini tuzishda asosiy mavzu bo'lishi mumkin. Qishloq manzarasini kompozitsiyasini tasvirlamoqchi bo'lsak avval tabiatda quyoshli, bulutli kunlar, peshin, oqshom holatini harakterli joylarini sinchiklab kuzatish kerak.

Formatni aniqlab, ufq chizig'i, ko'rish nuqtasini belgilab olish kerak. So'ngra havo va erni tekislikda nisbatlarni belgilab, oldingi, keyingi, orqa planni va predmetlar masshtabini topish darkor. Kompozitsiyani bir necha variantlarini sangina, ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

Mukammal bajarilgan, ko'mirda bajarish tavsiya etiladi.

Mukammal bajarilgan xomaki eskiz variantni rang koloritini aniqlash lozim.

Sifatli bajarilgan eskiz asosida qishloq manzarasi kompozitsiyani yakuniy nusxasini amalda bajarish kerak. Uni bajarish shartlari qog'oz, karton, xolst, akvarel, guash, moybo'yoq orqali amalga oshiriladi.

Bo'lajak rassom uchun hayotni kuzatish, mavzu yuzasidan kundalik qalamchizgi va etyudlarni bajarish mashqlarni qilishga kirishsa maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Manzara janridagi asarlar inson uchun ma'naviy oziqa beradi, uni ruhlantirvdi, hayotga shodlik va quvonch bag'ishlaydi.

Kompozitsiya - bu muallifning ijodiy, badiiy irodasi, maxsuli hisoblanadi.

Shunday ekan tasviriy san'atning barcha janrlarida kompozitsiya yaratish yuksak darajada bilim, ko'nikma, malaka hamda qobiliyat, saloxiyatni talab etadi.

Shu bois bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilari oliy o'quv yurtida ta'lim olayotgan vaqtdanoq qamrovli faoliyatga o'zlarini tayyorlab borishlari lozim.

1.3. Tasviriy san'at darsida manzara janrida kompozitsiya ishlashning o'ziga xos psixologik xususiyatlari

Tasviriy san'at darslarida manzara janrida kompozitsiya ishlashning o'ziga xos psixologik xususiyatlarini o'rganish tasviriy san'at nazariyasidagi yangi yo`nashlash deb qarash mumkin. U tasviriy san'at olamida yaratilgan san'at asarlarini «Badiiy his qilish psixologiyasi» bilan uyg'un holda o'rganiladi. Manzara janrida ishlangan kompozitsiyalarni juda ko'plab rassomlar ijodida kuzatish mumkin.

Ma'lumki, badiiy asarlar go'zallik qonuniyatlari asosida yaratiladi. Tashkil etuvchi qismlardan – ritm, simmetriya, proporsiya (shakl) va boshqalar maxsus bo'linga ajratilib, izohlab chiqilgan.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi uchun ishlangan kompozitsiya tasviriy san'atning manzara janrida ishlangan bo'lib, ushbu asar har bir inson ruhiyatini tabiatga yaqinlashtiradi.

Aytish lozimki, ushbu asarda olimlar tomonidan har qanday san'at asarini his qilishda zarur bo'ladigan go'zallikning doimiy elementlari ishlab chiqilgan. Ular odatda, san'at nazariyasida ifoda, badiiy va kompozitsion vositalar, xususan, kompozitsiya, nur va soya, kontrast, simmetriya, nisbat, plastiklilik, ritm, tonallik, dinamika, hajmlilik, arxitektonika, uyg'unlik deb yuritiladi.

Badiiy ijodiyotning ko'p asrlik tajribasi kompozitsiyaning bir qator qonuniyatlari ishlab chiqishga sharoit yaratib berdi. Ularga amal qilgan holda estetik botartiblikka oson erishilmoqda. Manzara janrida ishlangan kompozitsiyadagi tabiatdagi yaxlitlik, simmetriya va ritm qoidalari o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlar hisoblanadi. Xuddi shu xususiyatlari boshqa san'at asarlaridan alohida ajratib turadi. Yaxlitlik asarning uyg'unligi, tugallanganligi va konstruktiv aniqligini namoyon qiladi.

Manzara janrida yaratilgan har qanday san'at asarlarini his qilish jarayonini kompozitsiya tushunchasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Manzara janrida ishlangan kompozitsiyaning o'ziga xos psixologik xususiyatlaridan biri – unda tasvirlangan tabiat unsurlarini, borliqni butun psixik

jarayonlar orqali his qilish bilan zavq olishdir. Kompozitsiyaning asosiy xususiyatlari– mantiqiylik, shakl aniqligi hamda qismlar mutanosibligidadir. Ushbu soʻz lotincha «composito» soʻzidan olingan boʻlib mutanosiblik, birlashuv, bogʻliklik degan ma'noni anglatadi.

Manzara janrida ishlangan kompozitsiyada barcha kompozitsion, badiiy va ifodaviy vositalar mavjuddir. Ushbu san'at asariga oid psixologik xususiyatlarni bilmasdan, uning mazmunini, mohiyatini badiiy his qilish xususiyati haqida muhokama yuritish qiyindir.

Rangtasvirning asosiy elementlari moy boʻyoqlar boʻlib, ular yordamida ushbu manzara janridagi kompozitsion asar yaratildi.

Rang manzara janrida kompozitsiyani badiiy his qilish psixologiyasida bosh vazifani bajaradi. Rangni his qilish jismoniy va ruhiy (psixologik) xususiyatlarga bogʻliq boʻlgan murakkab jarayondir.

Zamonaviy san'atshunoslik ikki sifatli darajani belgilaydi. Birinchisi – rangni sezish va uni badiiy qabul qilish. Ikkinchisi - rang hissiyoti tushunchasiga xam bogʻliqdir. Rangni sezish – eng sodda psixologik jarayon boʻlib, uni badiiy his qilish psixologik tartibning bir qator qonunlariga asoslanadi. Rang hissiyoti emotsional va estetik sohalarga tegishli. Rangni qabul qilish koʻzning holati, tomoshabinning ruxiy holati, yoshi, bilan belgilanadi. «Koʻz - astrologiyaning asosi hisoblanib, u kosmografiyani yaratadi, u insonlar yaratayotgan san'atni oʻz maslahatlari bilan kerakli yoʻlga yoʻnaltiradi» – deb yozgan edi Leonardo da Vinchi oʻzining «Rangtasvir haqidagi manbasida».

Manzara janridagi kompozitsiyada foydalanilgan ranglardagi asosiy farq ochlik, rang tusi va toʻyinganligida boʻlib, rang dogʻi shu orqali xarakterlanadi. Ranglar aralashuvi kompozitsiyaning mohiyatini ochishda alohida ahamiyatga ega. Tabiatda toza rang yoʻq, barcha ranglar aralashadi. Kompozitsiyada kontrast usulidan foydalanildi. Kontrast – bir-biridan keskin farq qiluvchi tasavvur va omillarning qarama – qarshi qoʻyilishidir. Kontrastning mohiyati shundaki, bir-biriga keskin qarama - qarshi boʻlgan buyumlar (predmet) yoki xolatlar birgalikda yangi tuygʻu va hissiyotlarni uygʻotadi. Rangtasvir san'atida kontrast universal vazifani bajaradi.

Kontrastning ramziyligidan ma'lum bir dunyoqarash, mazmuni ochib berish maqsadida foydalaniladi. Kontrast shakl yasovchi elementdir, u (bezakdorlik) dekorativlilik xususiyatlarini yaratishda ishtirok etadi. U nur – soya uyini, chiziqli perspektiva bilan birga fazoviy chuqurlikni yaratishga ko`mak beradi. Rang uyg`unligi, kolorit, nur – soya kontrastni o`z ichiga oladi. Kontrast ikki turi bo`lib – tabiiy-ilmiy aspektlar yordamida o`rganilib, xodisalarni psixofiziologik va estetik nuqtai nazardan bajariladigan tabiiy-ilmiy, xamda badiiy ifodalilik vositalari tizimida kontrastning o`rni aspektlarga bo`linadi. Kontrastning klassik misoli bo`lib – qor ustidagi soyalar hisoblanadi.

Rang hissiyoti deganda – rangni murakkab his etish jarayonini boyitish tushuniladi, bunda nafaqat rangning doimiy xususiyatlari xarakteristikasi, balki rang bilan bog`liq tasavvur, timsol, o`xshatma (assotsiatsiyalar)larning murakkab tizimi talqin etiladi.

Rang uyg`unligi mutanosibligi, muvozanat, hamohanglik kabi sifatlar bilan belgilanadi. Qonuniyat uyg`unlikning bosh belgisi hisoblanadi. Ushbu qonuniyatlar tufayli tomoshabin ranglar majmuasini tartibga solingan estetik – ijobiy jamlanma sifatida qabul qiladi. Rang timsollarning ruxiy (emotsional) xarakteristikasini yaratishda qatnashadi.

Rangni his qilishda hissiyotlar turli xil bo`ladi. Umuman bu kayfiyat – xursandchilik, qayg`u, iztirob, quvnoqlik hissiyotlardan iborat.

Rangni badiiy his qilishga xamrohlik qiluvchi yana bir hissiyotlar (emotsiyalar) – vazm, harorat, fakturaga bog`lik bo`ladi. Va nihoyat ushbu manzara janridagi kompozitsiyada rang ramziyligini oladigan bo`lsak, u orqali nafaqat estetik, balki dunyoviy mazmundagi ifodaviylikka erishish mumkin. San`atshunoslik adabiyotida yashildan to qizilgacha bo`lgan ranglar – iliq ranglar majmuasiga kiradi. Boshqalari esa, ya'ni moviydan och qizilgacha – sovuq ranglar majmuasiga kiritiladi. Yashil rang-betaraf (neytral) hisoblanadi. G`arbiy Evropaning rangni his etish psixologiyasida ishlab chiqilgan ranglar ramzini O`rta Osiyoda XX asrning oxirida paydo bo`lgan ranglar ramzi bilan taqqoslash qiziqarlidir.

Taniqli nemis shoiri Gyotening so`zlariga ko`ra, ko`z yashil rangdan

lazzatlanadi. Sariq rang jozibali bo'lib, u iliq taassurotlar va xush kayfiyatlilik uyg'otatadi. Ko'k rang esa soya – salqinni eslatib, tanada sovuqlikni hosil etadi. Qizil rang jiddiylik, obro' bilan bir qatorda, joziba va nazokatlik xaqida taassurot beradi. G'arbiy Evropada yashovchi inson ranglarni mana shunday qabul qiladi.

O'rta Osiyo aholisi, sufizm falsafasiga asoslanuvchi musulmonlar esa ranglar ramziyligiga o'zgacha yondashishgan. Rang nazariya semantikasi nuqtai nazaridan qiziqarlidir. Tojik olimi A.Qurbonmamadov olib borgan tadqiqotlarga ko'ra, agarda so'fiy ilohiy go'zallikka cho'mish holatida bo'lsa, u qora rangli kiyimda bo'lishi kerak, agarda u ilohiy yuksaklikka cho'mish holatida bo'lsa oq rangli kiyimda bo'lishi lozim. Shuningdek ular ko'k, sariq va boshqa ranglardagi kiyimlarni ham kiyishgan. So'fiylar nazarida rang mistik quvvatga ega bo'lib, u e'tiqod qiluvchilarga ham ruxan, ham jismonan ta'sir o'tkazgan. Oq rangni ular soflik, tozalik, pokizalik, ko'ngilochar ramzi sifatida qabul qilganlar. E'tiqod qiluvchilar oq rangni beg'ubor, dunyo ne'matlaridan voz kechish ramzi deb bilganlar. Qora rang sufizmida inson ongi anglab eta olmaydigan qandaydir yashirin bir sir ramzini anglatgan. Qora rang sarosimalik va qayg'u, insonning Payg'ambar oldida kuchsiz ekanligini isbotlovchi rang deb bilingan. Qora rangda kiyingan insonning qalbi – boshqalar uchun sirlar kitobi sir bo'lgan. Qora rang – zulm, yovuzlik, baxtsizlik, xalokat va ayriliq rangidir. Bu ramzlar ko'pincha Sharq nazmida (she'riyatida) qo'llanilgan. Ko'k osmon rangi, ochilmas sir, xavf-xatar va ofat belgisi sifatida ta'riflangan. Ko'k rang etik mazmun ham baxsh etgan. U kamtarlik, soddalik, va abadiylikni anglatgan, hamda mustahkamlik va irodalik ramzi sanalgan. Yashil rang – sokinlik, osoyishtalik va Xudo bilan tilsiz muloqotda bo'lish rangidir. U ko'rish qobiliyatini ravshanlashtirib, etik jixatdan saxiylik, tobe'lik, Xudoga bo'lgan sadoqatni anglatgan. Shunday qilib, ushbu bitiruv malakiy ishida manzara janrida ishlangan kompozitsiya uchun foydalanilgan ranglar va ularning psixologiyasi bilan tanishdik.

Bundan tashqari manzara janrida ishlangan kompozitsiyada rassom-pedagoglarning psixik protsesslari muhim ahamiyatga ega. Ularda ana shu psixik protsesslar yuksak darajada rivojlanib, taraqqiy etgan bo'lsa, rassom yaratgan har qanday asar o'zining ruhiy olamini ocha oladi. Quyida manzara janrida ishlangan

kompozitsiya misolida rassom ijodkorning psixik jarayonlari bilan ijodiy jarayonlari uzviy bog'liqliklari haqida ma'lumot beriladi.

Tasviriy san'at asarlarining har biri o'zining ijtimoiy-psixologik xususiyatiga ega. Ana shu xususiyat ularning pedagogik tarbiyalovchi imkoniyatlari katta ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy psixologiyada an'ana ajdodlardan avlodlarga o'tib keluvchi, o'z odatlari, qoidalari, qadriyatlari va tasavvurlariga ega, tarixan shakllangan faoliyat va xulq-atvor shakl sifatida talqin qilinadi. An'analar milliy xususiyatga ega, ular millat hayotidagi o'zgarishlar bilan birgalikda o'zgarib, yangilana boradi. An'analar odamlarning turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyatini tartibga solib turuvchi muhim omildir. Tasviriy san'atda manzara janrida kompozitsiya ishlash murakkab jarayon bo'lib, butun ijodiy kuchni mujassamlashni, ishda aniq muntazamlilikni talab etadi, shuningdek, doimiy kuzatishni va o'rab turgan hayotimizni o'rganishni hamda asarda ijtimoiy hayot tarzini targ'ib qilishni taqozo etadi.

Buyuk san'at sohiblarining betakror asrlaridagi ilg'or g'oyalarda badiiy ijod olamining yashirin qirralari yoshlarimiz ongida uzoq o'tmishdan hikoya qiluvchi ertaklar kabi qalblarda go'zal tuyg'ular uyg'otadi. Tariximizda o'chmas iz qoldirgan sahifalar yoshlarimiz ruhiyatini yanada boyitadi.

Ijodkor har bir asariga insonlar qalbida joy olishi uchun unga yurak qo'rini to'kadi. Vujudida oqayotgan jo'shqinlik tanaga jon bag'ishlaydi.

Rassom san'at asarini yaratishda o'zida katta irodani ko'rishi lozim. Bu ishining muvofaqqiyatli chiqishiga turtki bo'ladi.

Manzara janrida ishlangan kompozitsiyada ijodkorning irodaviyligi – ijod kuchining samarasini belgilagan, ijod uchun eng zaruriy psixik jarayonlardan biri hisoblangan. Iroda mehnat faoliyatining asosiy turi sifatida amalga oshsa-da, lekin mehnatning samarasi irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishiga bog'liq. Irodasizlik ma'naviyatning kuchsizlanishiga olib kelishi, so'ngra jismoniy kuch va insonda dangasalik va xatto ongsizlikka olib kelishi mumkin. Bu holda insonning biror ahamiyatli narsa yaratishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emas.

Iroda psixologik nuqtai-nazaridan o'zida shaxsning ongli ravishda o'z

xarakterlarini boshqaradigan psixik jarayon bo'lib, maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish yo'lidagi ko'nikmasini egallashdagi urinishlarida namoyon bo'ladi. Iroda maqsadga etish uchun aqliy va jismoniy kuch-quvvatini ongli ravishda boshqara olish yoki aksincha qandaydir voqeani amalga oshirmoqlikdir. U faqat insonga hosdir. Iroda oddiy va murakkab xarakterlar orqali amalga oshadi. Murakkab irodaviy xarakterlar avvalo, anglash va masalani qo'yish, masalani qo'yish va rejalashtirish, rejalashtirish va maqsadni amalga oshirishni nazarda tutadi. Iroda ma'lum xususiyatlari bilan xarakterlanadi: xarakatchanlik, mustaqillik, keskirlik, qat'iyatlilik, sabr-toqatlilik va o'z-o'zini boshqara olish. Irodaviy xususiyatlarning namoyon bo'lishi, irodaviy imkoniyatlarni so'zsiz, quyidagi psixik jarayonlar – hayol, sezgi, xotira, tasavvur kabilar bilan bog'laydi.

Shunday qilib, iroda katta kuch sifatida ijodni aktivlashtiradi, yuqori natijalarga erishishi va yana rassomning shaxs sifatida shakllanishida yuzaga chiqadi.

Asar yaratayotgan ijodkorda avvalombor ilhomlanish vujudga kelishi kerak.

Ilhomlanish – insonning mehnat jarayonidagi eng ko'tarinki ruxiy holatidir. Rassomning ijodiy mehnatida ilhomlanish, aktiv ijod kuchlaridan biri sifatida ahamiyatli rol o'ynaydi. Ilhomlanish – go'yo ijodiy, ma'naviy, jismoniy jihatdan qattiq bosim berganday tuyulsa-da, lekin amaliy jihatdan rassom uchun bu vaziyat juda engil kechgan, unda hamma narsaga oson erishilgan, ijodiy topshiriqlar juda tez echilgan bo'ladi. Bu engillik shu narsa bilan bog'liq bdiki, bunda rassom katta hayotiy taassurotlar zaxirasiga ega edi va katta qiziqish va quvonch bilan ishlagan edi. Bunda uning ijodiy hayoli va obrazli tafakkuri faol ishlagan edi. Bularning barchasi sonning sifat darajasiga o'tishiga – natijada, qattiq ilhom bilan ishlangan mehnat badiiy asarni dunyoga keltirgan edi.

Hayol – ijodda asosiy va o'ziga xos natija ko'rsatuvchi ijodiy kuchdir. Badiiy ijodda uning ixtiyoriy, ixtiyorsiz, yaratuvchi ijodiy hayol kabi turlarining barchasi ishtirok etadi. Bular ichida albatta ijodiy faoliyatda ijodiy hayol katta o'rin tutadi.

Intuitsiya – sezgirlik, bu inson hayotida alohida fenomenal va murakkab faoliyat bo'lib, inson ruhiy faoliyatida – ya'ni ijodiy mexnatda, xususan badiiy ijodda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga so'zsiz intuitsiya xotira, tafakkur va obrazli

tasavvur bilan jips aloqada bo'ladi.

Intuitsiya ob'ektiv borliqni aks ettiruvchi sifatida bo'lsada, uni rivojlantirish yo'llari ham bordir. Ulardan asosiysi - organizmning biologik sifatlarini tarbiyalashdir (rassomning ko'zi, qo'shiqchining ovozi, musiqachining qulog'i va barmoqlari, raqqosaning qomati) kuzatuvchilikni o'stirish, xotiraning xajmi va ishchanligini ko'tarish, tafakkurni rivojlantirish (jumladan, obrazlilikni), hayol, hissiyotni tushunish, birmaromlilik, uzluksiz mehnat va yangi echimlarni har tomonlama izlash kabilardir.

Tafakkur – ijod kuchlaridan biri bo'lib, borliq materiallari haqida fikrlashda, tahlil qilishda idrok, sezgi, hissiyot va esda qoldirishda asosiy rol o'ynaydi. Xotira vositasida, ya'ni, badiiy asar yaratish maqsadida, tafakkur ishtirokida borliqni chuqur va har tomonlama bilishning oliy jarayoni hisoblanadi, predmet va voqealarning belgilari va o'zaro bir biriga qonuniy bog'langanligi bilan, umumiy va ichki hususiyatlarini ochishga yo'naltirilgan holda namoyon bo'ladi.

Badiiy asar inson faoliyatining boshqa sohalaridagi kabi, tafakkurning mahsuli hisoblanadi.

San'at asari faqat tasviriy materialni o'z ichiga olibgina qolmay, balki g'oyaviy-estetik mazmun, dunyoqarash, falsafiy tushunishni ham qamrab oladi.

Rassomning tafakkuri ijodiy xarakteri bilan ajralib turadi, u ijodiy hayol bilan birga xarakatlanadi va san'at spetsifikasi xususiyatlari bilan bog'liq ravishda ishlaydi.

Emotsional to'lqinlanish – ijodning kuchlardan biri sifatida rassom uchun juda zarur hisobladi. U shuning uchun zarurki, ular orqali hayotdan ancha yorqin taasurol olishnigina emas, balki rassom o'zida bu to'lqinlanishni o'tkazadi.

Shunday qilib hissiyot reproduktiv ijod kuchi sifatida olamni aks ettiruvchi, ayni bir vaqtda hayotda yangilik yaratishga yordam beruvchi sifatida san'atga individual munosabat paydo qiladi va borliqning obrazini shoironalashtiradi.

Xotira – xuddi hissiyot kabi badiiy ijodning reproduktiv kuchi hisoblanib, u o'z navbatida o'zida eng zaruriy psixik jarayonni – odamning o'tgan tajribasini namoyon etadi. Jumladan, yodga olish, yodda saqlash va so'ngra shunday narsa yaratiladiki, uni o'tmish tajriba mazmuni bilan bog'lamsdan xotiraning aralashuvisiz borliqni,

jumladan, badiiylikni ham idrok etib bo'lmaydi. Xotira badiiylikni aks ettirishda xizmat qiladi. Inson hayotida va har qanday faoliyatida xotirani chetlab o'tolmay qoladi, xususan u o'sha taassurotlar bilangina yashab yuradi. U o'tgan, ko'rganlarini, anglaganlarini va taasurot materiallarini tahliliga ko'ra, tafakkurning natijalaridan foydalanishi zarur bo'ladi. O'tmish tajriba faqat xotira evazigagina saqlanib qolishi mumkin.

Rassomning xotirasi etarli taassurotlar zahirasisiga ega bo'lgandagina u naturasiz ishlay oladi. Tasviriy ijod xotiraviy obrazlarsiz bemaqsad va befoydadir.

Naturadan ishlashda olingan tasavvurlari yig'indisi va ko'rish taassurotlari (to'liq obrazli) asarni qamrab oluvchi qimmatli obrazlar yaratishga imkon beradi. Rassom chizishni, yozishni, yasashni va hokazolarni tasavvur va xotira asosida bajarishi, u naturadan qanday ishlasa, «o'zidan» ham shunday ishlay olishi shart. Xotira boy bo'lmog'i uchun rassom uni doimo rivojlantirmog'i, mashq etib bormog'i zarurdir. Hech bir rassom o'zi yaratayotgan asarini ya'ni predmetini, psixologiyasini hamda u to'g'risidagi ma'lumotlarni bilmay turib uni tasvirlay olmaydi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi manzara janrida ishlangan bo'lib kompozitsiyaning psixologik xususiyatini ochib berilar ekan, avvalombor manzarada asosan nimalar tasvirlanganligi, ularning qay tarzda turganligi diqqatimizni tortadi.

Manzara janrida ishlangan kompozitsiyaning milliy va an'anaviy tarzda ifoda etilganini nafaqat tashqi ko'rinishidan, balki, ichki hislari bilan ham yaqqol tasvirlanganini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni manzara janrida ishlangan kompozitsiyaga nazar tashlagan har bir inson birinchi bo'lib undan ma'naviy ozuqa olishga intiladi. Shung bilan birga ranglar jilvasidan, tabiatning tog'li manzarasidan to'la bahramand bo'lishga, ruhiy dam olishga chog'lanadi.

II-BOB. TARIXIY SHAXARLAR KO`RINISHI VA KOMPOZITSIYASINING BAJARILISH JARAYONI

2.1. Tarixiy shaharlar kompozitsiyasini ishlashda minoralarning ahamiyati.

Minoralar - Sharq me'morchiligining g'aroyib va sirli shakllaridan biri. Ushbu ko'hna inshootlarning vujudga kelishi haqida ko'plab taxminlar mavjud. «Minora» arabcha so'z bo'lib, «nimadir yoqilgan joy» yoki «nur tarqatuvchi» ma'nosini bildiradi. Lekin falsafiy mohiyatiga e'tibor berilsa, minora ma'naviy nur yoki yaratganga iltijo qilish yo'li bilan yorug'likka intiluvchi inson qalbi ramzi ma'nosini anglatadi.

Minoralar ming yillardan buyon musulmon Sharqi mamlakatlari shahar manzarasini bezab keladi. Ular ko'pgina shaharlar, ulardagi masjid va madrasa singari diniy yoki ma'rifiy muassasalarning ramziy belgisi sanaladi. Mustaqillik davrida O'zbekistonda o'rta asrlarga oid bunday noyob me'morchilik obidalari bebaho madaniy meros sifatida alohida maqomga ega bo'ldi va ular davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

O'rta Osiyo xududidagi minoralar haqidagi dastlabki ma'lumotlar Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobida uchraydi. U jumladan: «Bu tomi yog'och bilan yopilgan, hijriy 306 yili vazir Abu Ubaydullo Jayhoni buyrug'i bilan Buxorodagi jome masjidi yonida qurilgan minora edi (918/19 yillar). 460 yili Shamsulmulk shaharni qamal qilgan paytdagi yong'inda inshootga jiddiy zarar etdi», - deb yozgan.

1904 yili Samarqanddagi Afrosiyob xarobalarida V.V.Bartold tomonidan olib borilgan qazishmalar chog'ida qadimgi jome masjidi o'rnida X asrda pishiq g'ishtdan qurilgan kvadrat shaklidagi poydevor va minoraning ikkinchi bo'g'ini topilgan. Quyidagilarni mamlakatimiz hududida saqlanib qolgan va eng kadimgi davrlarda qurilgan shu turdagi inshootlar deyish mumkin:

-Chorustun masjidi (IX - X asrlar) yonidagi Termiz minorasi (1023 y.) O'rta Osiyodagi eng qadimgi minora hisoblanadi. U pishiq. g'ishtdan qurilgan, ko'pqirrali


poydevori va ikki qator yozuv tushirilgan hoshiyali dumalok ustun ko`rinishida bo`lgan.

-Buxorodagi Minorai Kalon (1127 yil) mavjud minoralardan eng balandi (50 metr atrofida)dir. U mahobatli ko`rinishi bilan emas, badiiy bezagi jihatidan ham boshqa minoralardan ajralib turadi.

Shunisi diqqatga sazovorki, Buxoro vohasida keyingi davrlarda barpo etilgan barcha minoralar Minorai Kalon minorasining kichikroq shakli ko`rinishida yoki unga o`xshatib qurilgan. Ammo Buxoroda XVI asrda qurilgan Govkushon va Vang`ozi singari eng yirik minoralar ham Minorai Kalondan 2 - 2,5 barobar kichik. Minora ustuni ustida bir oz osilib tushgan, o`ziga xos tuynuk shakli Buxoro minoralarining o`ziga xos jihati hisoblanadi.

Chorminor deb ataluvchi, burchaklarida to`rtta minorasi bo`lgan kub shaklidagi binodan iborat ixcham yodgorlik 1807 yili qurilgan. U Buxoroda keyingi davrlarda tiklangan o`ziga xos inshootlar qatoriga kiradi.


Surxondaryo viloyati Termiz shahri yakini joylashgan Minor qishlog`idagi Jarqo`rg`on minorasi (1108-1109/10y.) hozirgi paytgacha saqlanib qolgan eng qadimiy va noyob inshootlardan biridir. Inshoot pishiq g`ishtdan qurilgan katta jome masjidiga tegishli bo`lgan. Uning xarobalarini 1879 yilda F.N.Jukov ochgan va rassom N.N.Karazin tasvirga olgan. Jarqo`rg`on minorasi ustuni Xuroson va Xindistondagi minorali maqbaralaridagi kabi tik qat-qat burmali bezaklarga bo`lingan. Bu esa O`rta Osiyo me`morchiligi uchun xos bo`lmagan bezakdir. Ta`kidlash joizki, devorlarni bunday qat-qat bezaklar bilan ziynatlash an`anasi qadimiy ildizga ega. Bu xildagi bezaklarni O`rta Osiyo zodagonlarining ilk o`rta asrlarda (VI - VIII asrlar) qurilgan qasrlarida uchratish mumkin.



Minorai Kalon. Buxoro. XII asr




Minorai Kalon (yuqori qismi)



Chorminor. Buxoro. 1807

Jarqo`rg`on minorasida g`ishtlar bezakdor qilib terilganligi jihatidan Ismoil Somoniy maqbarasi (IX - X asrlar), keyingi davrlarda qurilgan Mag`oki Attori masjidi (XII asr) va Poyi Kalon masjidi yonidagi Minorai Kalon (1127), shuningdek, Samarqanddagi Shohizinda yodgorlik majmuasidagi Qusam ibn Abbos ziyoratxonasiga yondosh qurilgan XV asrga oid masjidga kiraverishdagi devordan bo`rtib chiqib turgan bezakdor qilib terilgan g`ishtlar ko`rinishiga o`xshab ketadi.



Qo`rg`on minorasi. XII asr

Temuriylar davriga oid yuqori qismi qulab ketgan minoralarning saqlanib qolgan qismlari e'tiborni tortadi. Jumladan, Muhammad Sulton (Amir Temurning nevarasi) madrasasi va xonaqohi (XIV asr oxiri) burchaklariga qurilgan to'rtta minora, majmuaning kvadrat shaklidagi hovlisiga yondosh qurilgan Go'ri Amir maqbarasidagi minora (XV asr boshlari) diqqatga sazovordir. Ularning barchasi yaxlit bir ansamblni tashkil etadi. Hozirgi paytgacha ushbu me'moriy majmuadan faqat maqbara, peshtokli ichki hovli va ikki minoraning quyi qismi qatlamlari saqlanib qolgan. Inshootlarning dastlabki ko'rinishini tiklash mumkin. Negaki ular tuzilishiga ko'ra Hirot (Afg'oniston) masjidlaridagi uch bo'g'inli minoralarga o'xshash. Ulardan biri Gavharshod musalla masjidi oldida to'laligicha, Ne'matiya masjidi oldida esa faqat ikki qatlam saqlanib qolgan.

Minoralarning barpo etilishi mutaxassislar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Ular islom dini - kirib kelguniga qadar ham O'zbekiston hududida mavjud bo'lganligi ta'kidlangan.

M.E.Masson, G.A.Pugachenkova, L.Yu.Mankovskaya singari olimlar O'rta Osiyoga mansub minoralar asosi dumaloq ustunli ekanligi, ular bronza davridagi kal'a qo'rg'onlari devorlaridagi minoralar shakliga, buddaviylik stambxayodgorlik ustunlariga o'xshashligi; ko'chmanchi qabilalarda masofani belgilash va cho'lda mo'ljal olishga xizmat qiluvchi ustunlar eng yuqori qismida but o'rnatilgan yoki olov yonib turadigan, tsilindr yoki konus shaklidagi burj minoralari; mayoklar ekanligini ta'kidlashgan.

Musulmon me'morchiligini o'rganish bo'yicha yirik olim Ernest Dits fikriga ko'ra, azon aytishga mo'ljallangan minora yaratishga extiyoj paydo bo'lgunga qadar Osiyoda ma'lum va keng tarqalgan me'morchilik shakllari xisoblangan qorovul minorasi, axoli istiqomat minorasi, maqbara-minora singari minora inshooti turlari mavjud bo'lgan. Bulardan tashqari, olim nasroniylardagi qo'ng'iroqxona inshootlari bilan ma'lum musobaqa bo'lgani ham minoralar rivojida muhim omil ekanligini qayd etgan. E.Dits burchakli minoralar Sharqdan kelib chiqqan, deb ta'kidlaydi. Bunday shakldagi minoralar, xatto, ellin davrida antik

me'morchiligidan meros sifatida olinganligi ma'lum. Keyinchalik olim Qobul yakinidagi buddaviylik davriga oid «jayya-stambxa» deb nomlangan mashhur g'alaba ustunlari islom minorasining alomati bo'lgan, degan fikrga keldi.

Fergyussonning so'zlariga qaraganda, Dehli yaqinidagi mashhur bo'rtma minora (XIII asr boshlari) Qutbiddin tomonidan aynan «jayya-stambxa», ya'ni hindular uchun tushunarli bo'lgan g'alaba ramzi sifatida qurilgan.

Ko'pgina tadqiqotchilar musulmon me'morchiligida birinchi bo'lib minora Suriyada paydo bo'lganligi, u erdagi va boshqa joydagi minoralar dastlabki to'rtburchak shaklida qurilgani, «dumaloq shakldagi minoralar keyinroq barpo qilina boshlanganligini» ta'kidlashadi. Shuningdek, O'rta Osiyoga islom kirib kelguniga qadar ham minoraga o'xshash diniy inshootlar bo'lganligi haqidagi fikrlar bor. Xususan, «g'ayridinlar» (butparastlar) ziyoratgohi bo'lib xizmat qilgan Samarqandda odamlar uzoqdan ko'riboq sajdaga bosh eggan butli minora o'rnatilgan edi. Ziyoratchilar shahardan ketayotganda minora ko'zga ko'rinmaguncha orqalari bilan yurganlar».

Baland minoralar kuyidagi amaliy vazifalarni bajarishga mo'ljallab qurilgan:

- uzoqlardan mayoqlar, qorovullar minorasi, otashkadalar, butlar uchun tagliklarning olovi ko'rinib turishi;

- akustik imkoniyatlardan (qo'ng'iroqxonalar uchun) foydalanish;

- rasadxonalardagi zinapoyali piramidalarda maxsus moslama kabilar.

Minoralar muhim g'oyaviy vazifani ham bajargan. Baland binolarga Er va Osmon o'rtasidagi aloqa ramzi, islomgacha bo'lgan e'tiqodlarda hayot daraxti va boshqa kosmologik afsonalar tajassumi, shuningdek, hukmdorlar qudrati ramzi - g'alaba yodgorligi sifatida qaralgan.

Eski Termiz xarobasi hududidagi Zurmala minorasi (II asr) hozirgi paytgacha saqlanib qolgan eng qadimgi inshootlardan biridir. U to'rtburchak poydevorga o'rnatilgan, qachonlardir gumbazi bo'lgan, g'ishtdan tsilindr shaklida qurilgan budda stupasidir. U erdan topilgan ba'zi parchalarga qarab, taxmin qilish mumkinki, minora qizil pishiq g'ishtdan tiklanib, budda afsonalariga oid sujetlar tasviri tushirilgan tosh bloklar bilan qoplangan.


Keyingi davrlarda qurilgan inshootlar orasida Xivadagi usta Xudoyberdi hoji qurgan Islom xo`ja minorasi alohida ajralib turadi (XX asr boshlari). Bu bino O`rta Osiyodagi eng yirik minoradir. Uning balandligi 44,6 metr, poydevori diametri 9,5 metr. U Xiva shahrida juda uzoqlardan ham ko`rinib turadi. Yaqindan qaralganda ham minora atrofidagi binolar uning ulug`vorligini ta`kidlab turadi. Islom xo`ja minorasi shu turdagi me`morchilik inshootlarining rivojidagi yakuniy bosqichdir. U Ichanqal`a markazida Pahlavon Mahmud maqbarasi va Jome masjidi hamda vazir Islom xo`ja nomi bilan yuritilgan Madrasa (1908 y.), minora (1910 y.) va yangi usul maktabi (1912 y) kabilardan iborat majmua yonida qurilgan.

Xivadagi yana bir inshoot Kalta Minor oxirigacha qurilib bitmagan bo`lsa ham, o`zining ko`lami va hajmi (diametri 14 metr va balandligi 26 metr) bilan kishini hayratga soladi. U dunyodagi eng katta minora bo`lishi kerak edi.

XIV - XV asrlarda O`rta Osiyoda diniy marosimlar bilan bog`lik vazifa bajarganligi tufayli ko`plab minoralar qurilgan. Ular goh davlat yoki shaxsiy qudrat ramzi sifatida, goh bino kompozitsiyasidagi zaruriy estetik tarkibiy qism sifatida barpo etilgan.



Islom xo`ja majmuasi. Xiva. XX asr boshi



Kalta minor. Xiva. 1889 yil fotosurati

Baland minoralar Sharq shaharlari qiyofasida muhim rol o`ynagan (O`rta Osiyoda buni Xivadagi Ichanqal`a misolida ko`rish mumkin) va shahardagi yirik masjidlar, madarasalar, me`moriy majmualarning joylashgan o`rmini topishga yordam beruvchi belgi vazifasini o`tadi

Minoralar maydonda joylashuvi (alohida yoki binoga qo`shib qurilgan); yuqorisining shakli (yuqorisida tuynuk bo`lgan dumaloq ustunli yoki ko`pqatlamli ignasimon) ustuniga tikkasiga (qat-qat burma), bo`ylama (g`ishtni shakldor qilib terish yoki qoplash), tekis yoki to`rsimon qilib ishlov berilishi kabi jihatlariga ko`ra farqlanadi. O`rta Osiyo minoralarining eng muhim xususiyatlari nuqtai nazaridan ularni tasniflaymiz.

Alohida qurilgan minoralar, odatda, masjidlar yoki diniy jamoatchilik binolari yonida qurilgan.

Minora masjidning asosiy binosi oldida yoki burchagida (Chilburji, Bashan, Dahiston masjidlari, IX - X asrlar; Buxoroda Minorai Kalon minorasi, XII asr; Xivada Muhammad Aminxon madrasasi yonidagi Kalta minor; o`sha erdagi Islom

xo`ja minorasi, XX asr boshlari va boshqalar) yoki uning old tomoni markazida (Qohiradagi Samara, ibn Tulun masjidlari, IX asr, Rabotdagi Hasan minorasi va boshqalar) joylashishi mumkin; alohida qurilgan minora keyinchalik barpo etilgan bino tarkibiga qo`shilib ketishi mumkin (Juma masjidi minorasi, XVIII asr Xivadagi Said Sholikorbiy majmuasi, 1841Y.).

Keyinchalik qurilgan minoralar tuzilishi va bezak jihatdan yirik jamoatchilik binolarining tarkibiy qismi sifatida ularga uyg`unlashtirib yuborilgan.

Minoralar temuriylar davri me`morchiligida inshootlarning yirik peshtoki kompozitsiyasiga kiritilib, hovli ko`rinishidagi majmualar burchaklarida barpo etilgan. Vazifasiga ko`ra, birinchi guruhga mansublari faqat amaliy jihatdan qo`llangan. Lekin ular orasida nihoyatda baland bo`lganligi uchun azon aytishga noqulay hisoblangan ikki bo`g`imli yodgorliklar ham mavjud.

Asil vazifasidan uzoqlashgan va faqat g`oyaviy obrazli yunalishini saqlab qolgan minoralar, shakliga ko`ra, «amaliy - obrazli» jihati bilan farqlanadi.

O`rta Osiyoda mo`g`ullar istilosiga qadar va so`nggi feodal davrlarida qurilgan va binolardan ajralib turgan minoralarning ustki qismida azon aytuvchilar uchun ravoqli tuynuklar bo`lgan.

Binolarga qo`shib qurilgan minoralar ikki yoki uch bo`lakdan iborat bo`lib, ular nihoyatda baland qilib barpo etilgan. Ularning ustki qismida azon aytuvchilarga qulay tuynuklar o`rniga bezakdor araqilar ishlangan.

O`rta Osiyo hududida tez-tez zilzila bo`lib turganligi bois yuqorida nomlari keltirilgan yodgorliklardan birortasining ustki qismi saqlanib qolmagan. Shuning uchun ularning shakli Eron va Afg`onistondagi XIV - XVI asrlarga oid mashhur yodgorliklar namunasi asosida qayta tiklanmoqda.

O`rta Osiyo me`morchiligi tarixida XII asr o`rtalari, XV asr boshlari XVII asr 1 -yarmida ba`zan minoralarning ko`p bo`g`imli turi ham qurilgan.

O`rta Osiyoning qadimgi minoralari orasida erga ko`milgan kub asosli, sakkiz burchakli, poydevori va yuqorisiga kubba o`rnatilgan, tsilindr shaklidagi ustuni bo`lgan muqaddas ustun ko`rinishidagi hind qabilalarining diniy inshootlari alohida ajralib turadi. Bu shakl ko`proq bir bo`g`imli minoralarga xosdir

(keyingi yillarda arxeologik qazilmalar natijasida ochilgan Bolasog'un minorasi poydevori bunga misol bo'ladi).

O'zgan va Jarqo'rg'on minoralari ham qirrali poydevor ustiga o'rnatilgan. Movarounnahr, Farg'ona va Xorazmdagi alohida qurilgan minoralar ustunlari yuzasi silliq bo'lganligiga qaramay, ularning barchasi sakkiz burchakli poydevorlarga o'rnatilgan.

Jarqo'rg'on minorasida Xuroson va Hindistondagi minorali maqbaralar singari vertikal bezakdor qat-qat burmalarga ajratilgan. Shuning uchun ushbu yagona yodgorlik O'rta Osiyo me'morchiligidagi alohida xodisa sifatida talqin etiladi.

O'rta Osiyo hududidagi minoralar uchun ustun shakli (tsilindrli, entazisli, konussimon), qavatlilik (bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli, uch bo'g'inli), tugallanish qismining shakli (tuynuk, sharafa) muhim tipologik belgi sanaladi. Minoralarning poydevor shakli (kub, sakkiz burchak, tsilindr) va joylashish o'rni (alohida, binoga qo'shilgan) ularning tur xususiyatlariga kiradi. Ustun qismlariga ishlov berish va mutanosiblik hamda bezakdorlikka o'ziga xos yondashuv namoyon bo'ladi.

Osilib turadigan tuynukli minoralar Movarounnahr va Farg'ona hududi uchun xosdir. Ularga X - XII asrlarga mansub Rarza, Fatmeva, Ayniy yodgorliklari, X asrga oid Bo'ron minorasi, X asr boshlariga oid O'zgardagi minora, 1196 - 1197 yillarda qurilgan Buxorodagi Minorai Kalon, Termiz minoralari, 1570-1571 yillarda qurilgan Buxorodagi Gov kushon minorasi, XVI asr ikkinchi yarmiga oid G'ijduvon minorasi, Buxoro atrofidagi Vang'ozi, Chorbakr va Bahouddin, Qo'qondagi jome va Miyon hazrat, Marg'ilondagi Kaftarlik, Qarshidagi Qo'rg'oncha kabi majmualardagi minoralarni kiritish mumkin.

Xorazmdagi XVIII asrga oid Jome masjidi, 1842 yilda qurilgan Said Sholikorbiy majmuasi Xivadagi To'ramurod to'ra, Abdul Bobo, Chilla Ovli, Magomed Magarram, Bikajon bika, To'rt Shaboz, Polvonqori, Islom xo'ja kabi minoralarida konus shaklidagi ustunlarga tuynuklar o'rnatilgan.

Jarqo'rg'on va Ko'hna Urganch, Samarqanddagi Bibixonim masjidi, Muhammad Sulton majmuasi kvadrat hovlisi burchaklari, Sherdor kabi inshootlar oldida ikki yoki uch bo'g'inli minoralar barpo etilgan. Muallifning fikriga ko'ra,

yuqori qismlari nurab ketgan Samarqanddagi Go`ri Amir maqbarasi, Bibixonim masjidi kabilarda ham shu shakldagi minoralar qurilgan. Ularning barchasi zamonda qurilgan va to`laligicha saqlanib qolgan Hirotdagi (Afg`oniston) Gavharshod musallosi (1417/18) kabi XV asrga oid uch bo`g`imli inshootlarga o`xshab ketadi.

Mudofaa, qo`riqlash, va pochta aloqasi maqsadlarida foydalanilgan, shuningdek, kabutarlar uchun in sifatidagi uyachalari bo`lgan qadimgi minorasimon inshootlarga ham alohida e`tibor berish lozim. Ikki ming yil avval O`lik dengiz qirg`og`ida tog`dagi Masad kal`asida Isroillik mashhur shoh Irod qurdirgan minoralarda ana shunday tuzilishni kuzatish mumkin. O`rta asrlarda Termiz yonidagi Kaptarxonada qurilgan dumaloq kal`a minorani ham shu turdagi inshootlar qatoriga kiritish mumkin.


Minoralar an`anaviy me`morchilik unsuri sifatida ichki masjidi bo`lgan madrasalar yonida ham qurilgan. G.A.Pugachenkovaning «Minoralar -masjidlar yonida qurilgan va ular musulmonlarni azon aytib, namozga chaqiradigan maxsus inshootdir. Ular madrasalar yonida hashamat uchun ham quriladi, bunga esa hojat yo`q», degan fikriga qo`shilib bo`lmaydi. Chunki madrasalar yonidagi minoralardan mashg`ulotlar boshlanishi, tushlik tanaffus, yangiliklar va favqulodda voqealarni ma`lum qilish maqsadida ham foydalanilgan.

Tuzilishiga ko`ra minoralarni yodga soluvchi burchak minoralar arablarning dastlabki harbiy istehkomlari bo`lgan va keyinchalik karvonsaroylarga aylantirilgan rabotlarni, qo`rg`on inshootlarining kirish peshtoqlarini, hukmdorlarning mudofaa inshootlarini, qarorgohlarini, ularning saroylari va chorbog`larini, bog`lar devorlarini, xalq me`morchiligi uylarini guldasta-minora sifatida bezatgan. Buxoro arkini ana shunday bezatilgan inshootlardan biri deyish mumkin. Bunday holatda minoralar mudofaa vazifasini ham bajargan. Ularda soqchilar kuzatuvchilik qilgan.

Aksariyat hollarda minora shaklidan uy uchog`i e`tiqodi bilan bog`lik, terrakota buyumlarini bezashda ham foydalanilgan.

Xulosa qilib aytganda, Sharq, mamlakatlari, xususan, O`zbekistonning an`anaviy me`morchiligida minoralar muhim ramziy ma`no kasb etgan. Bunday

minorasimon inshootlar turli vazifalarni bajarish bilan birga, chuqur falsafiy ma'noga ham ega bo'lgan. Ularning nomidan kelib chiqib (minora — «nur taratuvchi»), ta'kidlash joizki, «minora» deganda nafaqat mayoqdan taraladigan nur, balki har bir musulmon ma'rifatga intilishi zarurligi ham nazarda tutiladi. Malayziya poytaxtidagi Minara teleminorasi nomi ham 'ramziy ma'noga ega. Baland inshootlar ma'nosini shunday tushunish barcha davrlar va barcha rivojlangan jamiyatlar uchun hamisha dolzarb bo'lib qolaveradi.



Vobkent minorasi. XII asr

2.2. “Ming gumbaz shahri” Xivada joylashgan imoratlar ko`rinishining o`rganilishi

Xorazm manzarasini ishlash deganda, behtiyor ko`z oldimizda dunyoning qadimiy shaharlaridan biri bo`lgan Xiva shahridagi tarixiy obidalar gavdalanadi. Agar Xiva manzarasini ishlashda Ichan-qal`aning umumiy ko`rinishini tasvirlaydigan bo`lsak, kartinada tasvirlangan zamoni qadimgi yoki hozir biz yashab turgan davr ekanligini aytishda qiynalib qolishimiz hech gap emas. Shuning uchun ham Ichan-qal`ani “Ochiq osmon ostidagi muzey” deb bejiz ta`riflashmagan bo`lsa kerak. Xivaga tashrif buyurgan har qanday rassom Ichan-qal`adagi tarixiy obidarni ko`rib, behtiyor qo`liga mato va moybo`yoqlarni olib Xiva manzarasini ishlashni istab qolishi shubhasiz albatta. Shuning uchun men Bitiruv malakaviy ishimning ushbu qismida Xorazm tarixiy obidalarining ko`rinishlari haqida to`xtalib o`tmoqchiman.

Xiva asrlar mobaynida insoniyatning ma`naviy va moddiy madaniyati taraqqiyatiga o`zining salmoqli xissasini qo`shib kelmoqda.



Xalqaro sayyohlik markazlardan biri sanalgan Xiva bejiz butun dunyoda ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e`tirof etilmagan. Bu shahar xududida miloddan avvalgi VI – V asrlardan XX asr boshlarigacha bo`lgan davrlarga ta`luqli 122 dan ortiq arxeologik yodgorliklar va me`moriy obidalar saqlanib qolgan bo`lib Davlat muhofazasiga olingan.

Xiva o'zining qurilishi tarixiy o'tmishi, me'moriy obidalarining yaxlit tarzda saqlanib qolganligi bilan qadimiy shaharlar orasida alohida o'rin tutadi. Ayniqsa Xiva shahrining Ichan-Qal'a qismi Markaziy Osiyoda saqlanib qolgan birdan bir butun boshli shahar-yodgorlik bo'lib uning o'tmishidagi taqdiri me'moriy obidalari dunyoning eng qadimgi madaniy voha Xorazmning tarixiy madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'likdir. Betakror Xiva shahri sharq xalqlarini qadimiy madaniyati beshigi Xorazmning ko'p asrlik me'moriy qurilish an'analarini meros qilib olgan Xorazm me'morlari san'ati va mehnatining ijodiy yakunidir.

Xiva shahri 1990 yil 12 dekabrda YUNESKO ning Kanadada bo'lib o'tgan 14 sessiyasining maxsus qarori bilan Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib "Butun jahon merosi" sifatida ro'yhatga olingan. 1997 yilda mamlakatimizning ikki azim va buyuk shahri Buxoro va Xivaning 2500 yil yubileyi YUNESKO rahnomalagida dunyo miqiyosida keng nishonlanishi bu shaharning butun dunyoda e'tirof etilganidan dalolat beradi.

O'zbekistonning eng ko'hna muzeylaridan biri bo'lgan Xiva "Ichan-Qal'a" tarixiy me'moriy Davlat muzey-qo'riqxonasi 26 ga maydonda joylashgan bo'lib "Ichan-Qal'a"ning ko'hna devorlari bilan o'ralgan.

Muzey – qo'riqxonada 54 ta mangulikka daxldor tarixiy memoriy obidalar 360 xonadon 2600 aholi istiqomat qiladi.

1920 yil 27 aprelda Xiva Davlat muzey sifatida tashkil topgan bu dargoh 1924 yildan 67 yilgacha Xorazm inqilobi tarixi muzeyi 1967 yildan Markaziy Osiyoda birinchi bo'lib Xiva tarixiy me'moriy qo'riqxonasi 1967 yildan esa haqiqiy tarixiy me'moriy muzey–qo'riqxonasi sifatida faoliyat ko'rsata boshlagan. Muzey–qo'riqxonaning 69 ta zalida joylashgan 14 mustaqil ekspozitsiya Xorazm va Xiva tarixini ma'lum bir davrlarini aks ettirib uning jahon madaniyatiga qo'shgan xissasini ochib beradi.



O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan 1984-1993 yillarda o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar davrida shaharning yoshi aniqlangan. Xiva shahrida o‘tkazilgan arxeologik qazishmalar natijasi shuni ko‘rsatadiki, “Ichan qal’a” hududi eramizdan avvalgi V asrda paydo bo‘lgan. Shaharning eng pastki qatlamida topilgan ashyolar (sopol buyumlar va qalin paxsa devorlar) shundan dalolat beradi. Shahar devorlari ostidan topilgan madaniy qatlam, sopol buyumlar va katta hajmdagi xom g‘ishtlar shaharni 2500 yoshda ekanini tasdiqlaydi.

Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, 712 yilda Xivani arablar istilo qilishgan, IX asr boshlarida Xorazm somoniylar davlati tarkibiga kirgan. Bu davrda u mustahkam devor bilan o‘ralgan. 1128 yildan 1220 yilgacha shahar Xorazmshohlarning buyuk zabardast sulolasi Anushteginiylar davrida Xorazmning hunarmandchilik markazlaridan biri bo‘lib johonga tanildi. Mo‘g‘ul istilosi tufayli shahar 1221 yildan mo‘g‘ullar imperiyasi asoratiga tushgan. Shahar 1388 yildan boshlab temuriylar davlati qo‘l ostiga tushib qolgan. XVI asr boshlaridan 1924 yilgacha Xiva xonligining poytaxti bo‘lib turgan XVI asr boshlaridan boshlab shahar har tomonlama rivojlana boshlagan. Bu yerda ma‘muriy binolar qurila boshlangan. 1616 yil Arab Muhammadxon tomonidan birinchi madrasa quriladi, bu bilan xon mahalliy xalq orasida o‘z mavqeini mustahkamlaydi. Undan keyin yana ikkita madrasa Xo‘jamberdibiy (1688 y) va Sherg‘ozixon (1719 y) madrasalari qurildi. Shahar obodonlashtirilib, savdo-sotiq rivojlandi. Lekin, bu yuksalish uzoq davom qilmadi. Mamlakat Eron bosqinchilarining hujumlari ostida qoladi. 1740 yili Eron shohi Nodirshoh Samarqand va Buxoroni zabt qilgach, Xiva xonligiga hujum

boshlaydi. 1740 yili kech kuzda Xiva shahrini ishg'ol qiladi. Nodirshoh xujumi natijasida Xiva shahri butunlay vayron qilinib, mamlakat Eronga qaram bo'lgan o'lkaga aylantirilgan. Shundan keyin mamlakatda bir necha yillar ko'chmanchi turkman yovmut zodagonlari hukmronlik qildilar. Ular bilan mahalliy o'zbek zodagonlari o'rtasida davlatni qo'lga olish uchun bo'lgan qonli kurashlar natijasida mamlakat vayron bo'ldi, xalq esa chidab bo'lmas darajada qashshoqlashdi. Nihoyat, qonli urushlar, o'zaro nizolarga bir qadar barham berildi. XIX asrning boshlariga kelib Avazbek Inoqning o'g'li Eltuzarxon (1804-1806) navbatdagi qo'g'irchoq xonni taxtdan ag'dardi va o'zini xon deb e'lon qildi. Ayni paytda u qo'ng'iroq sulolasiga asos soldi. Shu kundan e'tiboran, Xivani qo'ng'iroq sulolasidan bo'lgan xonlar 1920 yilgacha, ya'ni sovet bosqiniga qadar idora qilishdi. Inoqlar hukmronligi davridayoq, Xiva shahrining xaroba devorlari qayta tiklandi. Shahar ichkarisida bir necha ma'muriy binolar ko'hna Jom'e masjidi, Muhammad Amin Inoq, Fozilboy madrasalari qurildi.



Shu davrda xonning saroyi, qo'shini, qurol-yarog', o'q dori omborlari Ark (Ko'hna ark) da joylashgan edi. Xon arki shaharning eng qadimiy qismi bo'lib, XVII asrda Ichan qal'aning butun g'arbiy tomonini egallab olgan edi, bu yerda xon devonxonasi, ko'rinishxona (qabulxona), xonning harami, yozgi va qishgi masjidlari hamda zarbxona joylashgan edi. XIX asrga kelib shahar kengaydi, u ikki qismdan, ya'ni Ichan qal'a shahriston (ichki shahar) va Deshon qal'a rabot (tashqi shahar) dan iborat bo'ldi. Shahar tevaragida esa o'nlab qishloqlar joylashgan edi. Ichan qal'a o'ziga xos yaxlit me'moriy inshootlardan iborat bo'lib, baland paxsa devor bilan

o‘ralgan, to‘rtta darvozasi- Ota darvoza, Polvon darvoza, Tosh darvoza va Bog‘cha darvoza to‘rt tomonga qaratib qurilgan. Ichan qal‘a devorlari vaqt o‘tishi bilan bir necha bor buzilgan va qayta ta‘mirlangan.



Devor aylanasing uzunligi qariyb 2200 metrgacha, balandligi 7–8 metrga, poydevorining qalinligi esa 5–6 metrga teng. Ichan qal‘a to‘g‘ri to‘rtburchak shaklida qurilgan bo‘lib, uzunligi 650 metr, eni 400 metr, ya‘ni 26 gektar maydonni egallaydi. Deshon qal‘a – rabot. Ichan qal‘a atrofida XIX asrning o‘rtalarida vujudga kelgan. Deshon qal‘ada kambag‘al-kosiblar, hunarmandlar va mayda savdogarlar yashashgan. Tikuvchilar (chitgarlar), kulollar, elakchilar, juvozchilar, misgarlar, tunukachilar va boshqa mahalla nomlari shu davrgacha saqlanib qolgan. Deshon qal‘a 1842 yilda baland devor bilan o‘rab olingan bo‘lib qal‘ani qurishda xonlikning 200 mingdan ziyod aholisi qatnashgan.



Deshon qal'ani o'rab olgan devorning uzunligi 6250 metr, uning o'nta darvozasi bo'lgan: Hazorasp (Qo'y darvoza), Pishkanik, Angariq, Shixlar, Tozabog', Shohimardon, Doshyoq, Gadoylar, Qo'sha darvoza va Gandimyon. Deshon qal'ada turar joylardan tashqari xonning yozgi qarorgohlari uchta bog' – Rofanik, Nurullabek va Nurullaboy bo'lgan. Deshon qal'a qurilishi bilan shahar ikkita qismga bo'lingan va shahar maydoni bir necha o'n marta kengaygan.



Muhammad Aminxon madrasasi va minorasi. Xiva shahrida 64 ta madrasa mavjud bo'lib, shular ichida eng yirigi va chiroylisi Xiva xoni Muhammad Aminxon tomonidan qurilgan madrasa hisoblanadi. Madrasa Ichan qal'aning g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, shaharning bosh darvozasi Ota darvozadan kirib kelganda, o'ng tomonda joylashgan. Bu me'morchilik obidasi o'z davriga xos uslubda eng katta va hashamatli qilib qurilgan.

Madrasa pishiq g'ishtdan qurilib, uning devorlarini qalinligi 1,5 metrga yetadi. Madrasa 130 hujradan iborat bo'lib, tarixiy ma'lumotlarga asosan unda bir vaqtning o'zida 260 nafar talaba tahsil olgan.

Madrasa me'moriy jihatdan boshqa shu kabi binolarga o'xshash, bino simmetrik tarzda, ikki qavatli qilib qurilgan, tarhi to'g'ri burchakli, hovlili. Peshtoqning ikki yoniga an'anaviy guldasta-minoralar ishlangan. Bosh tarzini besh gumbazli miyonsaroy, masjid, darsxona va qo'shimcha xonalar egallagan. Hovlining ikki yonida kichik peshtoqlar bor. Birinchi qavatdagi hujralar yotoqxona va

yordamchi xonalar sifatida xizmat qiladi, ikkinchi qavatdagi ravoqli peshayvon binoga fayz bag'ishlagan. Ichkari hovlida to'rtta kichik peshtoqlar ham mavjud bo'lib, ularda "suls" xatlari bitilgan koshinlar, bezaklar ham mavjud. Derazalarda ganchdan ishlangan panjaralar qurilgan. Pastida devor va tsokol orasiga nam o'tkazmaydigan qatlam (gidroizalatsiya)-tosh belbog' (poyas) ni balandligi 68 sm qilib qo'yilgan. Madaminxon madrasasi - deb yozadi 1863 yilda Xivaga kelgan sayyoh A.Vamberi: "Karvonsaroy" tipida qurilgan bo'lib, yonidagi minorasi xonning halokati tufayli bitmay qolgan. Madrasada diniy va dunyoviy ilm berilgan, ayni paytda ko'ngilochar o'yinlar, shuningdek ashula aytish man qilingan. Madrasada o'qish muddati chegaralanmagan bo'lib, ayrim talabalar bir kursda 3-4 yil, hatto 8-10 yillab o'qishgan.



Muhammad Aminxon minorasi: Ma'lumki minoralar, Islom dini yurtimizga tarqalishi bilan bog'liq ravishda qurilgandir. Har bir masjid yoki madrasa yonida albatta minora qurilib, undan musulmonlarni ibodatga chorlash uchun foydalanilgan. Keyinchalik esa shaharlarni bezagi va hukmdorlarni kuch-qudratini namoyishi

sifatida ham qurilgan. Shuning uchun Sharq shaharlaridagi koʻhna obidalarni minoralarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Xivada qurilgan mashhur minoralardan biri nihoyasiga yetkazilmagan Muhammad Aminxon minorasidir. Minora hozirgi paytda kesik konus shaklida boʻlib hozirni oʻzida ham haybatli koʻrinishga ega. Dinamik qisqarishiga qarab xulosa qilinadigan boʻlsa, bitganidan soʻng uning balandligi 100 metrga yaqin boʻlib Oʻrta Osiyoda eng katta va baland minora boʻlishi mumkin edi. Minoraga tushgan insolyatsiya (quyosh nurlarini tushushi va sinishi)ga qaraydigan boʻlsak minoradagi koshinlarning rangi oʻzgarmaydi. Chunki quyosh nuri har qanday jismni rangini oʻzgartiradi, yaʼni oqartiradi yoki ochiq tusga kirgizadi. Bu holat minorada sezilmaydi. Mana qancha vaqt oʻtgan boʻlsa ham xuddi yangi qurilganday saqlanib turibdi. Minorada asosan geometrik naqshlar (gireh) koʻp qoʻllanilgan minoraga ikkinchi qavatdan koʻtarilish mumkin, yaʼni minoraga yogʻoch zinapoya orqali chiqiladi. Minora 1853 yilda Muhammad Aminxon tomonidan qurila boshlangan va 1855 yil Shimoliy Eronga yurish paytida xonning oʻldirilishi va Abdullaxonning taxtga oʻtirishi bilan qurilish ishlari toʻxtab qolgan. Bu minora haqida xalq ichida ayrim rivoyatlar ham mavjud: Emishki, Xiva xoni shaharda juda ulkan va baland minora qurishni buyuradi. Uning tepasidan “Buxoroyi azim koʻrinib tursin” deb koʻrsatma bergan. Bundan xabar topgan Buxoro amiri minorani bunyod etayotgan meʼmor bilan yashirin reja tuzadiki, unga koʻra minora bitishi bilan meʼmor Buxoroda bundan ham yuksak minora qurishi kerak edi. Xon buni sezib qolib minora bitishi bilanyoq ustani oʻldirishga ahd qiladi. Shu niyatdan ogoh topgan ysta minorani chala qoldirib gʻoyib boʻlgan. Shu bois xalq bu haqda “Madaminxon madrasasi bitdi, minorasi bitmadi, Madaminxon murodiga yetmadi” deb bayt toʻqishgan.



Ko'hna ark. Xivaning qadimiy qal'asi bo'lib, Ichan-Qal'adagi xon saroylaridan biridir. Qal'aning paydo bo'lish tarixi Xiva shahri tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayrim tarixiy manbalarda qal'a va shahar qurilishi bir paytda (Ark:– qadimgi Xorazm shohlarining arz so'raydigan joyi, poytaxtdagi qasr, xon va amirlar saroyi) boshlangan deb ko'rsatilgan. Biroq Ark hududida hozir faqat XIX asrga oid bir necha bino saqlanib qolgan. Arkda xon va amaldorlarning uy joylari, davlat idoralari bilan bir qatorda ko'rinishxona (salomxona, arzxona), zarbxona, yozgi va qishgi masjid, haram, aslahaxona, o'q-dori tayyorlanadigan ustaxona, omborxona, oshxona, otxona, zindon va qo'chqor urushtiradigan maxsus maydon ham bo'lgan.

Ko'hna ark atamasi shaharda 1832-1838 yillarda yana shunday bir saroy Toshhovli bunyod etilgach qo'llanila boshlangan. U qurilishi va tuzilishiga ko'ra shahar ichidagi shaharni eslatadi. Bir tomoni Ichan qal'a devori va boshqa tomonlari maxsus devorlar bilan o'rab olingan. Arkka faqat bitta yo'ldan sharqiy darvozadan kiriladi. Uning hududi 1 gektardan ziyodroq maydonni egallab, to'rtburchak shaklda (123x93 metr) qurilgan bo'lib, baland qalin devor bilan o'ralgan. Ko'hna ark katta-kichik to'rtta hovlidan tashkil topgan. Hovlilararo maxsus yo'laklar bor, Ark darvozasi burjlari tepasida gumbazli qafasa bo'lgan. Mayda ravoqchalar qatori yon tomondagi qal'a devoriga ulanib ketgan. Haram va xonga qarashli uy-joylar shimol tomondagi ichkari xovlida joylashgan.



Koʻhna Arkdagi buzilib ketgan xonalar haqida aniq fikr yuritish qiyin, lekin saqlangan koʻrinishxona, yozgi va qishqi masjid, zarbxona va haram binolari saroyning haqiqiy koʻrinishi haqida qisman tasavvur beradi. Koʻhna Arkning gʻarbiy qismida Oq Shayx bobo tepaligi ham mavjud boʻlib, rivoyatlarga koʻra, XIV asrda yashab oʻtgan Shayx Muxtor Valining qadamjosi boʻlgan. Arxeologik qazishmalar shuni tasdiqladiki, tepalik juda qadimgi boʻlib, qaytadan XVII asr boshlarida asos solingan. Tepalikda saqlanib qolgan ikki qavatli uying xarobalari soʻnggi davrga oid qasrning kuzatuv minorasi boʻlib xizmat qilgan. Tepalikning ichki xonalarida XIX asrda toʻp quyish ustaxonasi va porox saqlanadigan ombor joylashtirilgan. Bino 1991 yilda qayta taʼmirlangan, hozirda sayyohlar ushbu tepalikning baland ayvoni orqali shaharni tepadan tomosha qilmoqdalar.



Muhammad Rahimxon (Feruz) madrasasi Koʻhna ark darvozasi qarshisidagi madrasa Sayid Muhammad Rahimxon II ning farmoniga binoan 1871-1876 yillarda qurilgan. Madrasa oʻzining kengligi, serviqorligi bilan boshqa madrasalardan ajralib turadi. Madrasada yozgi va qishgi masjid, darsxona, kitobxona va hujralar bor. Madrasaning hovlisi 76 ta bir qavatli hujra bilan oʻralgan boʻlib 152 talabaga moʻljallangan. Hujralar tomi tashqi tomondan toʻsiq devor (parapet) bilan chegaralangan va ikki qavatli bosh fasadga kelib tutashadi. Xushqad peshtoqning ikki yonida besh ravoqli galereya bor. Darvozaxona atrofidagi xonalar toʻqqizta gumbazga ega. Binoning ichki plani boshqa madrasalar tuzilishidan farq qiladi. Devorlar yuzasidagi sirkor gʻishtchalardan terilgan ornamentli bezaklar odatdagi shakllarni takrorlaydi. Kishida hovlining tuzilishi oʻzgacha taassurot qoldiradi. Hovlining bir qavatli hujralari qatori baland dekorativ peshtoqlar tashqi toʻsiq devor va burchaklardagi chiroyli minoracha-guldastalar bilan birgalikda ajoyib manzara kasbetadi.

Mustaqilligimizning ilk yillarida, yaʼni 1994 yilda madrasa qayta taʼmirlanib, shu yilning sentyabr oyida boʻlib oʻtgan Muhammad Rahimxon II “Feruz”ning 150 yillik toʻyiga toʻyona qilib madrasaning hovlisiga chiquvchi dahlizlari, oʻquv xonasi va qishgi masjidida Xiva xonligi tarixi va madaniyatini ochib beruvchi “Xorazm adabiyoti va tarixi muzeyi” ochildi. Muzeyda Xiva xonligining davlat ramzlari-bayroq, tangalar va oxirgi hukmdor xonlarning asl nusxa foto-suratlari, xorijdan keltirilgan savdo buyumlari, Xitoy va rus chinnisi, mahalliy hunarmand ustalarning

mahsulotlari, qurol-aslaha, kiyim-kechak kabi ko‘plab nodir buyumlarni tomosha qilish mumkin.



Sayid Olovuddin maqbarasi. Maqbara “Ichan-Qal’a” arxitektura yodgorliklari ichida eng qadimiylaridan biridir. Maqbara bitta ziyoratxona va go‘rxonadan iborat. Asrlar davomida atrofida qabrlar ko‘payib ketganligi uchun maqbara yer sathidan past qolib ketgan. Maqbaraning go‘rxonasida muqaddas hisoblangan ajoyib sirkor dahma joylashgan, dahma juda chiroyli yashil ko‘k va oq rangli koshinlar bilan qoplangan. Bu koshinlardagi barcha naqsh gullari bo‘rtmaligi bilan odatdan tashqari bir go‘zallik kashf etadi. Bunday koshinlar Xivada yagona bo‘lib, uning tengdoshi va o‘xshashi Ko‘hna Urganchda Shayx Najmiddin Kubro, Samarqanddagi Shohi Zindadagi Qusam ibn Abbos qabrida uchraydi. Maqbarani shayx Sayid Olovuddinning shogirdi va muridi naqshbandiya mazhabining taniqli namoyandasi so‘fi Amir Kulol (1380 yilda vafot etgan va Shahrisbzda Amir Temur tomonidan dafn qilingan) qurdirgan.

Maqbara tuzilishi bir oz beo‘xshov. Undagi yirik kosali burchak muqarnasi, do‘ppisimon, sakkiz rahli gumbaz nihoyatda sodda ko‘rinishga ega. Lekin maqbara ana shu beqiyos dahma tufayli mashhur bo‘lib ketdi. Soddagina maqbara bilan rang-barang bezatilgan hashamatli dahma o‘rtasidagi tafovutning kattaligidan, dahma boshqa joydan keltirilgandek tuyuladi.

Dahma shakli monumental binoga o‘xshatib yasalgan. Asosi-zinali supa shaklida yasalgan, burchaklariga ustunchalar qilingan, dahmaning yuzasi sirkor sopol bilan qoplangan. Dahma devorlari ornamentli po‘ta bilan hoshiyalangan bo‘lib, o‘rtasida esa pannolar joylashgan. Dahma ustida ikkita sag‘anacha bor. Mayda o‘simliksimon gullar juda haqqoniy tasvir etilgan bo‘lib, shakli o‘sha davr uy-ro‘zg‘or asboblardagi bezaklarga o‘xshab ketadi. Dahma koshinlarida ishlatilgan gullar, yirik shakl ichida mayda chiziqchalar hammasi birlikda shinam va jozibali ko‘rinish kasb etadi.

Mashhur shayxlarning qabrlari ustidagi maqbaralar davr o‘tishi bilan ziyoratgohga aylanib qolgan. Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) unga e‘tiqod bog‘lab, o‘z davrida uning maqbarasi ustida oliy imoratlar bino qilib anchagina vaqf yeri ajratgan. 1825 yilda maqbara butunlay ta‘mirlanib, ziyoratxonaning nuragan peshtoqining ravoqli qanotini bir oz qisqartirib qaytadan ishlangan. Ichkaridagi tokchalar berkitilgan, xona sahniga g‘isht terilib devorlar esa ganch suvoq qilingan.



Uy-joy qurish me‘morchiligi. Xorazmning o‘ziga xos iqlimi (sahroga yaqinligi), aholining joylashishi, shaharlarning rivojlanishiga va uy-joylarning shakliga yaxshigina ta‘sir qilgan. Qadimda aholi sug‘orish tarmoqlariga yaqin joyda yashagan. Daryo o‘zanining o‘zgarishi natijasida shaharlarning ko‘chish voqeasi

Xorazm tarixida ko‘p uchraydi.

Uy-joylarning eng qadimgi va eng keng tarqalgan turi alohida-alohida joylashgan qo‘rg‘on hovlilardir. Qo‘rg‘on qishloq va ovuldan tamoman farq qiladi. Xorazm hududidagi to‘xtovsiz bo‘lib turgan o‘zaro urushlar qo‘rg‘on-hovlining devorlari mustahkam va xonalarining keng bo‘lishini talab qilardi. Qo‘rg‘onda oilaning butun ro‘zg‘ori, mollari, oziq-ovqat va suv saqlanadigan joylari bo‘lgan. Qo‘rg‘on teshik-tuyniksiz paxsa devor bilan o‘ralgan bo‘lib, devorning burchaklari g‘o‘la shaklidagi burjlar bilan mahkamlangan. Qo‘rg‘on tarxi (plani) to‘g‘ri to‘rt burchak shaklida bo‘lib, asosan ko‘pincha tashqi (dishan) va ichki (ichan) hovlilarga bo‘linadi. Barcha xonalar yassi tom bilan yopilgan. Uzun yo‘lak tepasidagi tuyniklar orqali yondoshxonalar ham yoritilgan, bunday qo‘rg‘on qamal vaqtida 100-150 kishilik jamoani muhofaza qilardi.

Mustahkam qo‘rg‘onlar ko‘plab qurilishi bilan bir qatorda ular atrofida VI-IX asrlarda qishloqlar vujudga kela boshladi, bu qishloqlarga katta mulk egalarini ko‘shk qo‘rg‘onlari o‘zgacha fayz bag‘ishlagan. Qo‘rg‘onlar atrofidagi uylar asosan cho‘bkori uslubida qurilgan oddiy binolar edi. Shu davrlarda bunday imoratlarni tiklash va buzish oson bo‘lgan. Shaharlarda joy tansiqligi uchun ixcham cho‘pkori imoratlar qurish qulay bo‘lgan. Cho‘pkori imoratlar keyinroq shaharga xos asosiy bino bo‘lib qoldi. Afsuski, cho‘pkori imoratlar paxsa devorli imoratlar kabi uzoq saqlanmagan. Shu sababli ularni qurishning rivojlanishini o‘rganib bo‘lmadi.



Xiva uylarining o‘ziga xos tuzilishi diqqatga sazovordir, binoning konstruktiv

asosini bir qavatli cho‘pkori devor tashkil etib, sinchlar orasiga xom g‘isht bilan loy urilgan. Bu yerdagi yozgi va qishgi xonalarning joylashuvi katta-kichikligi, bezaklari Buxoro, Samarqand va Farg‘ona uy-joylaridan tamoman farq qiladi. Markaziy Osiyo memorchiligida asrlar davomida imorat tarhi tarzidagi zaruriy unsur bo‘lib kelgan. Uning yuzaga kelishiga mintaqadagi iqlim sharoitining tasiri katta bo‘lgan. Bu yerda yoz juda issiq, qish esa sovuq bo‘ladi. Xiva uy-joylarini tashqi ko‘rinishi juda ajoyibdir: har bir uyda shimol tomonga qaratib ayvon quriladi, ayvonda asosan yozda “saraton oyida” kishilar issiqdan jon saqlashgan.

Xivaning ichki qal‘asida joy tansiqligi sababli hovlilarning fasadlari deyarli hammasi juda tordir. Ayvon hovli sahnini yuqoridan deyarli to‘sib turadi va hovli ham qisman ayvon vazifasini o‘taydi. Hovlida shamol yaxshiroq yurishi uchun ayvonni baland qilib qurganlar. Bu esa shamolning pastdan yuqoriga almashib turishi va ichkarini harir nur bilan yoritilishi yordam beradi. Ayvon qishda xonaning juda sovuq bo‘lishidan, yozda esa juda isib ketishidan saqlagan. Shuning uchun memorlar xonaning hovli iqlim sharoiti bilan yaqinligini saqlash, uyg‘unlashuv jihatidan rang-barang manzarasi bilan bog‘lanishiga alohida etibor berishgan. Mazkur tadbirlarni amalga oshirishda ayvon qo‘l kelgan. U xona bilan tashqi muhitni bog‘lovchi qism vazifasini o‘tagan.

Ayvon o‘rta asrlarda va undan keyingi davrda ham uylarda keng qo‘llanilgan. Turar joy memorchiligida ayvon ikki, to‘rt xona oralig‘ida uyning old qismini butunlay egallagan holda (pesh ayvon) qurilgan. U imoratning old yoki yon tomonlarida galereya (yo‘lak) sifatida, devor sathidan bo‘rtib chiqqan bolaxonaga monand, ikkinchi qavatning ochiq qismini egallagan shiypon sifatida va alohida to‘rt, uch tomoni ochiq boshpana sifatida ham bunyod qilingan.



Ayvonning turar joy memorchiligida qoʻllanilishi oʻsha joyning iqlim sharoiti va xonalarning joylashuv tartibidan kelib chiqqan. Masalan, Xivada iqlim sharoitining oʻzgachaligi, yozda havoning nisbatan issiqligi sababli ayvon xona va hovli havosini yangilab turishga moʻljallangan. Bu yerdagi ayvonlar ikki xil tuzilishga ega. Ulli (Ulugʻ) ayvon xonaning old qismini egallagan va undan ancha baland koʻtarilgan. Uning qarshisida teskari kichikroq ayvon oʻrnatilgan. Ulli ayvon bitta markaziy ustunga egaligi jihatidan minoraga monanddir. U shamol esadigan tomonga qaratilgan boʻlib, shamolni hovliga yoʻnaltirgan. Aslida ikkala ayvon ham hovlini tom bilan yopgandek tuyuladi. Ayvon oʻz vazifasidan tashqari imoratning umumiy kompozitsiyasini badiiylashtirgan va uning memoriy yechimini boyitgan. Masalan, Xivadagi Toshhovli saroyida ulli ayvon chuqur hamda minora tuzilishida boʻlib, uning markazidagi ustun oʻymakorlik usulida naqshu nigor bilan bezatilgan. Bu butun hovli kompozitsiyasiga badiiylik kasb etgan.

Xorazm shahar turar joylarida yetakchi tipologik uslub bu hovlida uzun ayvon qurilishi bilan belgilanadi. Shahar turar joy planirovkasida yopiqlik saqlanib qolingan. Bu hol qishloq hovlilari uchun xam xosdir. Hovliga kirish yoʻlagi ustiga bazan mehmonxona (talak) qurilgan, bu yerda uy egasi boʻlgan hunarmand buyurtmachilarni qabul qilgan. Turar joy yorugʻlik tushishi hisobga olinib qatʼiy ravishda orientatsiya qilinadi, qishki yashash xonalari janubiy sharq, gʻarb tomonga, yozgi xonalar esa shimol tomonga joylashtiriladi. Hovli deyarli ayvonlar bilan

yopiladi, bu ayvon koziroklari oldinga ancha chiqib turadi. Ayvonlar har xil kattalikda bo‘lib, shimol tomonda bir ustunli baland ulug‘ ayvon quriladi va u boshqa xonalar sathidan balandroq bo‘ladi. Xivaning Dishan qalasidagi turar joylarda ayvonning quyidagi turlari namoyon bo‘ladi:

a) Katta bo‘lmagan hovliga ega bo‘lgan bir ustunli ulug‘ ayvon. Bu ayvon hovli yuzasining yarmini yopib turadi. Ulug‘ ayvon yashash xonasining ustki qismiga quriladi, bu turdagi ayvonlar eng ko‘p uchraydi;

b) Hovliga uzun va baland o‘ng ayvon va uning qarama qarshi tomoniga o‘ng ayvon balandligiga nisbatan pastroq bo‘lgan ters ayvon quriladi;

v) Hovlida ulug‘ ayvon qarshisidagi yashash korpusi ustiga boloxonali-ayvoncha quriladi va bu tomondagi unga tutashadigan ayvonlar balandligi bir balandlikdagi sathda yotadi. Ular qo‘shilishi natijasida oraliqlar yopilib quyosh nurlari ham to‘siladi va hovliga to‘liq soya tushadi;

g) Ayvonlar hovli parametri bo‘ylab tiklanadi. Ikki tomoni yoki uch va to‘rtala tomoni ham burchakli qilib qurilishi mumkin. Bu uslub shahar chetida joylashgan hovlilar qurilishida keng qo‘llaniladi.

Hayvonlar turar-joy binolarining ichki muxitiga shinamlik bag‘ishlabgina qolmay balki tashqi kompozitsion ko‘rinishiga ham o‘ziga xos ko‘rinish baxsh etadi.

Xiva uy-joylari uchun harakterli bo‘lgan umumiylik shundan iboratki, binoning tuzilishi ham, bezagi ham juda sodda. Xona va ayvon devorlari bezaksiz somonli loy suvoqdan, uyning shipi toqi (vassa, patik) va yarim lo‘la to‘siqlardan iborat. Ganchdan ishlangan o‘ymakor bezaklar uchraydi. Binodagi birdan bir bezak katta ayvonning o‘ymakor yog‘och ustunidir. Bundan tashqari o‘ymakor eshiklar, panjaralar va ba’zi ko‘tarma ayvonlar ham xonadonga zeb-ziynat bag‘ishlaydi.



Sherg'ozixon madrasasi.

Sherg'ozixon (1714-1726) aqlli, jasur, tadbirkor, harbiy ishlarda juda mohir bo'lgan. Qariyalarning rivoyatlariga qaraganda, Sherg'ozixon Mashhadni bosib olgach (1715 yil) 5000 asirni Xivaga keltirib madrasa boshlatgan. Madrasa 1719 yilda qurilib bitkazilgan. Unga zamonasini tarixchilari "Maskani fozilon" deb nom berishgan. Haqiqatdan ham bu fozillar uyida buyuk shaxslar o'qib tahsil olganlar. Madrasa Pahlavon Mahmud maqbarasi oldida qurilgan, uning qurilishi to'g'risida bir necha tarix aytilib marmarga o'yilib yozilgan va madrasa peshtog'iga o'rnatilgan. Marmar lavhalardan to'rttasi bugungacha o'z holicha saqlangan. Madrasaga kirish eshigining yoniga o'rnatilgan marmar lavhalardagi 32 misralik forsiy she'rdan biz dunyo gulistonidagi bu madrasani Sherg'ozixon o'z aql va sahovati bilan qurdirganini, madrasaga vaqf qilib berilgan yerlarni mutavalli, mudarris, imom, muazin, kutubxonachi, farrosh va yana shu yerda yashovchi talabalarning oylik maoshini qancha ekanini bilib olamiz.



Shoirlar xonni sharaflab “Xurshidi jahon”, “Sheri xudo” kabi unvonlar bilan ulug‘lab, “Ushbu manzilda istiqomat etgan har kimsa shubhasiz alloma, bilim mash’ali va sir-asror tadqiqotchisi bo‘lg‘uvsidir” deb yozishgan. Shuningdek, o‘qish qoidalari, qoidani buzgan talaba va ustozga qanday jazo berilishi haqida ma’lumotlarni o‘rganamiz. Bu qoidaga ko‘ra talaba beuzr ikki oy o‘qishga kelmasa hujrasidan (demakki maoshidan ham), muallim bir hafta ishga kelmasa maoshidan mahrum bo‘lar ekan. She’riy lavxadagi “Maskani fozilon” jumlasidan madrasaning hijriy 1132 melodiy 1720 yilda qurilgani aniqlandi.



Pahlavon Mahmud maqbarasi. Pahlavon Mahmud maqbarasi asosan XIV-asrda kichik go‘rxona shaklida qurilgan bo‘lib unda o‘z davrining katta “Piri”-Pahlavon Mahmud (1247-1326) jasadi ko‘milgan. Pahlavon Mahmud 1247 yilda

Xiva shahrida po‘stindo‘z (kosib-hunarmand) oilasida tug‘ilgan. Yoshlik yillarda ota kasbi po‘stindo‘zlik bilan shug‘ullangan, so‘ngra xat-savod chiqarib, buyuk shoir faylasuf darajasiga erishgan. U juda ham zabardast pahlavon bo‘lib 79 yillik hayotida biron marta kuragi yerga tegmagan. Pahlavon Mahmud haqida ko‘plab rivoyatlar saqlanib qolgan. Shulardan biri: Bir zamonlar Xivani o‘rnida suvsiz dasht bo‘lgan. Ko‘hna Urganch vayron ilinganidan so‘ng mo‘g‘ullar istilosidan keyin, uning aholisi har tomonga tarqalib ketgan. Shu jumladan Pahlavon Mahmudning onasi ham homilador holida Xiva atrofiga yetib kelib, hozirgi Qiyot qishlog‘ida o‘g‘il tuqqan. Bu bola 15 yoshga yetgach mard kurashchi, mashhur pahlavon bo‘lib nom chiqargan. Pahlavon Mahmud maqbarasi vaqt o‘tishi bilan ko‘pgina xukmdorlar tomonidan aziz sanalib obod qilingan. Tarixiy manbalarda maqbaraga Amir Temur tomonidan eshik o‘rnatilgani yoziladi. Maqbara ichida Abulg‘ozixon, Anushaxon va Arangxonlarning qabri borligi ular xukmdorlik qilgan davrlarida ham shoir qabri obod bo‘lganligidan dalolat beradi. 1701-1702 yillarda Xiva xoni Shoniyozxon maqbarani yangidan quradi, bu davrdan bizga maqbaraga kiraverishdagi eshik yodgor qolgan. Eshikdagi yozuvlardan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, unda qur‘on oyati, hadis va she‘riy tarixlar bitilgan, turunch, madohil va boshqa islamiy gullar bilan bezatilgan.



Hozirgi maqbara Muhammad Rahimxon-I (1806-1825) tomonidan 1810 yilda Qo‘ng‘irot shahriga qilingan muvaffaqiyatli yurishdan so‘ng qurila boshlagan va

uning o'g'li Ollaqulixon davrida qurib bitkazilgan. Maqbara 3 ta qismdan iborat. Qabrxona, Xonaqo va Yo'lak. Maqbaraning g'arbiy qismida joylashgan xonaga Pahlavon Mahmud dafn qilingan. Xonaqoni shimoliy devori yonida Muhammad Rahimxon qabri joylashgan, uning yaqiniga esa Xiva xonlari Abulg'ozixon va Anushaxonlarning qabr toshlari o'rnatilgan. Yo'lakda esa Ollaqulixon dafn etilgan. Pahlavon Mahmud maqbarasi atrofi XIX asr oxiriga kelib Xiva xonlari va ularning yaqinlari dafn qilinadigan xilxonaga aylantirilgan. Bino qurilishini Xazorasplik usta Odinamuhammad Murod boshqargan, usta katta-kichik jismlarni (sirli koshin) yagona memorchilik inshootiga mohirlik bilan birlashtira olgan, sirkor bezaklar sag'anani, tashqi gumbaz va peshtoq qismini bezab turardi, shu vaqtda xonalarning ichi ganch suvoq qilingan edi. 1825 yilga kelib Ollaqulixon (1825-1842) buyrug'i bilan qabrxona, ya'ni ziyoratxonaga va xonaqoga sirkor bezak berildi. Xuddi shu davrda ziyoratxonaga va qabrxona gumbazlari tashqi tomondan zangori yashil sirkor g'ishtchalar bilan qoplandi. Maqbara peshtoqining ba'zi ko'chib ketgan koshinlari o'rniga o'ziga o'xshatib yangi koshinlar o'rnatildi. Gumbazli dolondagi bir xonaning old tomoni besh qirrali shaklga keltirilib, Ollaqulixon sag'anasi shu yerga qo'yilgan. Xona devorlari bezakdor sirli koshinlar bilan qoplandi va mis panjara o'rnatilgan. Qurilish ishlarida Xivalik ustalardan Mulla Nurmuhammad usta-Qalandar o'g'li, So'fimuhammad Niyoz usta-Abdujabbor o'g'li va usta Abdulla "jin"lar o'zlarining nodir san'atlarini ko'rsatib bera olishgan. Katta xonaqoni (balandligi 25 metrlik) tepasiga ustalar islamiy naqshlar bilan birga, bezaklar orasidagi kitobalarga Pahlavon Mahmudning 22 ta ruboiylarini, ustalarning ismlarini, hadislarni, tarixlarni o'zi ijod qilgan fors tilida bitganlar. Bundan tashqari qabrxonaga kiraverishdagi eshik tepasiga shoirning ushbu ruboiysi fors tilida bitilgan:



Uch yuz Ko‘hi Qofni kelida tuymoq,
Dil qonidan bermoq falakka bo‘yoq.
Yoinki bir asr zindonda yotmoq,
Nodon suhbatidan ko‘ra yaxshiroq.

1910-1913 yillarda maqbaraning g‘arbiy qismida Xiva xoni Isfandiyorxon (1910-1918) onasi, o‘zi va o‘g‘li uchun qabrxona va to‘rtta hujradan iborat ikki oshyonli qorixona bunyod qildirgan. Qurilish ishlariga usta Qurbonniyoz boshchilik qilib, qorixona qarshisiga o‘ymakori ustunli ayvon qurilgan. Pahlavon Mahmud majmuasi 1960 yilda usta Ro‘zmat Masharipov “Ro‘zmat arbob” ishtirokida katta gumbazning usti, qorixona va ayvon ta’mir lanib maqbaraga qayta jon bag‘ishlangan. Hozirgi vaqtda binoda O‘zbekiston Musulmonlarning diniy idorasi, “Pahlavon Mahmud jamg‘armasi” faoliyat ko‘rsatmoqda. Inshootning ayrim joylari ta’mir talab bo‘lganligi uchun 2007 yilda, ayvon ustunlari, yo‘laklar, quduq atrofi va uning tepasidagi chiroyli oshyonli yog‘och gumbaz, peshtoqning ba’zi tushib ketgan sirli koshinlari qayta ta’mir landi.




Qozi-Kalon madrasasi. Qozi Kalon madrasasi 1905 yilda Xiva xonining bosh qozisi Salim Oxun tomonidan qurilgan. Madrasaning qiyofasi va sahni uncha katta emas, boshqa madrasalardan farq qilmaydi, ammo o‘qitish uslubi bilan boshqa madrasalardan farq qilgan. Bu madrasada diniy bilimlar bilan bir qatorda qonunshunoslik, turli soliq vazakotlar yig‘ish, ya’ni yuridik bilimlar berilgan. Madrasani maydoni 32,5x23,4 m, darsxonaning o‘lchami 4,7x4,7 metr, unga yondosh masjid joylashgan. Madrasada 15 hujra bor. Madrasa qurilishida eng mashhur ustalar Xudaybergan Hoji, Qalandar Qo‘chim, Bog‘bek Abdurahmonov, Matchon Kulimov, Vais kulol va boshqalar ishtirok qilganlar. Hozirgi kunda bu madrasada “Xorazm musiqa san’ati” muzeyi joylashgan.



Islom Xo‘ja madrasasi va minorasi. Xiva xoni Isfandiyorxonning vaziri va

qaynotasi Sayid Islom xo‘ja 1908-1910 yillarda Pahlavon Mahmud maqbarasi yaqinda bitta madrasa va minora qurdiradi. Madrasani usta Xudoyberganhoji qurgan, madrasa va minoraning koshin bezaklarini Eshmuhammad Xudayberdiev ishlagan naqshlar asosida Xonqaning Madir qishlog‘idagi ustalardan Bolta Vaisov va Madaminovlar ishlaganlar. Madrasa 42 ta hujradan iborat bo‘lib, 50 ta talaba o‘qigan, uning oldingi qismi 2 qavat qilib qurilgan. Kiraverishda o‘ng tomonda maxsus masjid ham qurilgan. Bosh fasadi bilan minoraga bog‘liq bo‘lgan madrasa tashqi tuzilishi va bezaklari boshqa madrasalardan farq qilmaydi. Peshtoqining yon qanotlari ikki qavatli ravoqlar qatori va burchak guldastalaridan iborat. Ravoqlar tepasi ayrim hoshiyalar va sirkor koshinlar bilan chiroyli qilib bezatilgan. Kichik hovli bir qavatli hujralar bilan o‘ralgan. Devorlarida hech qanday bezak yo‘q. Peshtoqning orqa tomonida, hujralarning ustida oddiy yog‘och ustunli ayvon qurilgan.

Madrasaning eng yirik xonasi katta gumbazli masjiddir. Masjid madrasaning butun janubi-g‘arbiy tomonini egallagan, masjidning ichki ko‘rinishi Xiva ustalari ijodiga xos katta gumbazli xona tipida yopilgan. Masjidning janubiy tomonida joylashgan burchakdagi gumbaz ostida va mehrobda sirkor hamda ganchkori bezaklar ishlatib chiroyli manzara yaratilgan, madrasa uchun vaqf sifatida Islom Xo‘ja o‘z yeridan 14 ming 451 tanob yer ajratgan. Madrasada hozirgi vaqtda “Xorazm Amaliy san’ati” muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda.



Minora ham madrasa bilan bir vaqtda qurilgan bo‘lib, minorani balandligi 56,5 metr, pastki qismining diametri 9 metr. Minora qurilishida qadimgi ustalarning me‘morchilik uslubidan foydalanilgan. Minoraning yuqori qismi juda ingichkalashib, tepasi bejirim karniz va qubbali fonus bilan tugallangan. Fonus yuzasi turli shakldagi sopol-g‘ishtchalar bilan hoshiyalangan, ularning orasi esa rang-barang sirkor koshinlar bilan to‘ldirilgan. Fonus va karniz yashil-zangori, lojuvard (moviy) va oq rangdagi sirkor g‘ishtchalar bilan qoplangan. Shuning uchun ham minoraning yuqori qismi alohida bo‘lib ajralib turadi. Sirkor bezakli hoshiyalar minoraning konus shaklidagi tanasini bir necha joyidan halqasimon doira qilib aylangan. Mana shularni hisobga olgan qariyalar “Xo‘jani minorasida to‘rt faslni va o‘n ikki oyning bezagi bor” –deb aytadilar. Minoraning oddiy va aniq formasida, bezaklarida Xiva me‘morchiligiga kirib kelayotgan yangi uslub inshootlarini ko‘rish mumkin. O‘sha davrdagi Xiva me‘morchiligiga xos xususiyatlar qurilgan yangi tipdagi binolar-pochta, telegraf, yangi uslub jadidlar maktabi va kasalxonani tuzilishida o‘z ifodasini topgan. Ustalar qadimiy konstruktsiya va bezak usullari bilan bir qatorda ruscha g‘isht terish, yangicha shakldagi ravoq va tomlarni, ushbu binolarni qurishda qo‘llashgan. Minoraning qurilishi munosabati bilan shoir Niyoziy 48-misralik she‘riy

tarix bitgan, xuddi shunday 47misralik she'riy tarix madrasa qurilishi uchun ham bitilgan. Bu tarixlar marmarga usta Xudaybergan Devon tomonidan uyib yozilgan va madrasa eshigi ustiga, minoraning yerdan o'n metr baland joyiga o'rnatilgan. 1924 yilning yanvarida Xivani Junaidxon qamal qilganda minora tepasidan dushmanning shahardan tashqaridagi harakatlari kuzatilib turilgan. Minoraning tepasiga o'rnatilgan 2,5 metrlik qubba patal (bronza, latun va mis aralashmasi) degan metallardan ishlangan. Bu metallardan ishlangan qubba ma'lum bir vaqtgacha tilladek yaltirab turgan. Minora qubbasi Xiva shahrining 2500 yillik to'yi arafasida qayta ta'mirlanib, tilla qatlam bilan qoplandi.



Yangi usul maktabi. Yangi usul maktabi Islom Xo'ja madrasasining qarshisida 1910 yilda Islom Xo'ja tomonidan qurilgan. Yangi usul maktabi ikki qavatli qilib yevropacha uslubda qurilgan, umumiy uzunligi 21,07 metrni tashkil qiladi, ikkita dahliz, sakkizta xonadan iborat. Maktabda xon va xon ayonlarining farzandlari o'qitilgan. O'qish davomida maktabda ikki yillik programma asosida tilmochlar tayyorlangan. Maktabning ilk o'qituvchilari Husayn Qo'shaev va Komila Qo'shaevalardir. Ular tomonidan tayyorlangan o'quv programmasida rus tili, ona tili, jo'g'rofiya, Xiva tarixi va uy xizmatchisi vazifalari o'rgatadigan ilmlar o'qitilgan, ushbu maktab xalq inqilobi (1920 yil 2 fevral) g'alabasidan keyin ilk sho'rolar maktablariidan biriga aylantirilib o'qituvchi kadrlar tayyorlangan. 1990 yil 18 avgustda binoda Xalq ta'limi tarixi muzeyi ochildi, eng ulug' va buyuk

bayramlarimizdan biri mustaqilligimizning 13 yilligi munosabati bilan 2004 yilda bino qayta tamirlanib birinchi qavatda, birinchi o'zbek foto suratchisi va kino operatori Xudoybergan Devanovning doimiy ko'rgazmasi, hamda ikkinchi qavatda Xalq ta'limi tarixi muzeyi qayta ochildi.



Xivani Jume' (Juma) masjidi o'rta asrlarda shaharning ko'zga ko'ringan binolaridan biri bo'lib, o'ziga xos qurilishi va hajmi bilan ajralib turgan. Bu yodgorlik Xorazmning qadimgi masjidlarini eslatadi. Ancha katta 55x46 metrli maydonni egallab, ko'p ustunli qilib qurilgan. Bu bino Ichan-Qal'aning sharqiy va g'arbiy darvozalarini ulagan katta ko'cha yoqasida joylashgan. X asrda Xorazmga kelgan arab sayyohi al-Maqdisiy Xivani Juma masjidini birinchi marta tilga oladi. Biroq ko'pdan beri yashab kelayotgan xivaliklarning aytishlariga qaraganda ko'hna masjid buzilib ketgan va uning o'rniga 1788 yili xuddi o'sha reja asosida ancha kengaytirib hozirgi masjid bino qilingan. Masjid binosining tashqi ko'rinishi juda sodda, balandligi 4,5 metr, minorasining balandligi esa 42 metrga teng. Masjidni darvozasi shimolga qaratib qurilgan bo'lib, shimoldan esgan shamol masjid o'rtasida ochilgan ikkita kattagina tuynikdan chiqib ketgan. Tuynik pastida qadimda balhi tutlar o'sgan, bu shu davrda masjid ichidagi havoni tozalab turishga kattagina yordam bergan, bu yerda ota-bobolarimiz tabiat bilan inson o'rtasidagi biosintezni uyg'unlashtirganlar, hamda qadimda ko'pchilik binolarning ichiga tut daraxti ekilgan,

bilasiz tut daraxti suvni kam talab qiladi, ya'ni o'q ildizlari orqali suvni o'zi topib oladi. Bu bilan ajdodlarimiz me'moriy inshootni bust-butunligicha saqlashga katta e'tibor berishgan, ya'ni tut daraxti bino ichidagi va tevaragidagi namlikni olib muvozanatni saqlagan. Juma masjid bir qavatli tekis tomli imorat bo'lib, uning to'sinli shipini 3,15 x 3,15 metr tartibda joylashgan 213 ustun ko'tarib turadi. Masjidning mehrobi xonaning janubiy devorida joylashgan. Mehrob, odatdagidek alohida ko'rinib turishi uchun uning yonlariga baland tokchalar ishlangan bo'lib, shifti esa balandroq qilib qurilgan. Mehrob qubbasidagi sodda ganchkorlik bezaklar va shu bezak yaqinidagi devorga ishlangan rang-barang ochilgan gulsafsar va na'matakni tasvir etuvchi naqshlar XVIII asr oxiri va XX asrlarda ishlangan. Mehrobning ikki yonidagi devorlariga o'rnatilgan marmar toshlarga o'ymakor xatlar bitilgan, xatlarning biri hijriy sana 1203 (1788-89yy) masjid mulki va mablag' hadya etilishi munosabati bilan tuzilgan vaqfnoma bitilgan. Unda aytilishicha, vazir Abdurahmon amri bilan 1203 hijriy yilda Kuyuktom (Go'ktom,- hozirgi Qo'shko'pir tumanidagi qishloq) va Bekobod qishloqlarida masjidga vaqf yerlari ajratilganligi va daromadni xayr-ehsonga hamda masjid zaruriyatiga sarf qilish haqidagi xabarlar bor. Ikkinchi marmar taxta bir oz kichik bo'lib, unga 1080 yil hijriy (ya'ni 1666 yili) ni ko'rsatuvchi tarix yozilgan. Aholi orasida masjid XVIII-asrning ohirlarida ta'mir qilingan degan fikr mavjud. Janubiy fasaddagi o'ymakor eshikka bitilgan xatda ham shu xaqda aytilgan. Unda 1788-89 yillarda Abdurahmon Mehtar ismli shaxs boshchiligida masjid ta'mirlandi deyilgan. Masjidda qadimgi naqshinkor ustunlardan 15 tasi saqlanib qolgan, 8 ta ustun Toshkentda O'zbekiston Xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda. Qadimshunos olim Yaxyo G'ulomovning fikricha,-"bu ustunlarning ba'zilar butun O'zbekistonda yog'ochga o'yima naqsh solish san'atining eng qadimgi yodgorligidir". Eng qadimgi ustunlarda ko'zagi (ustun tagi) shapaloq barglarga ega, tanasining yuqori qismi muntazam raxli, o'rtasiga esa gir aylantirib xatti kufiy yozuvi yozilgan. Shakllar chuqur o'yib ishlangan. XIV asr ustunlarida esa naqshlar ko'p bo'lib, yozuvlar xatti nasxda berilgan. Bu uslubdagi o'ymakorlikni mehrob yaqinidagi yog'och taxtachalarda va eshik tabaqalarida ko'ramiz. Yana masjidda qadimgilarga taqlid qilib ishlangan bir necha ustunlar ham bor. Ularning birida 1510

yilni ko'rsatuvchi sana saqlanib qolgan. Boshqasida hech qanday yozuv yo'q. Balki ular mexrob yaqinidagi marmar taxtalar bilan bir vaqtda o'rnatilgan bo'lishi mumkin. Bu nodir yodgorlikni 1979 yili me'mor Senechkin loyihasi asosida ta'mirlash boshlandi. Juma masjidini 108 ta ustun 1983 yili aholidan sotib olingan. XVIII-XX asr boshlariga oid naqshinkor ustunlar bilan almashtirilgan. Masjidda Ko'hna Urganch, Izmiqshir va Xiva yog'och o'ymakorlik maktabining ustunlari bor. Rivoyat qilishlariga ko'ra masjid ichida go'yoki yovoyi g'o'zapoyadan ishlangan ustun bor emish, haqiqatda masjid ichida hech qanday g'o'zapoya daraxtidan bo'lgan ustun yo'q, bu narsa amalda mumkin emas, chunki g'o'zapoya daraxtini tanasi kavak bo'lib og'ir yuk ko'tarishga yaramaydi. 1996-1997 yillarda Juma masjidi ta'mirlandi va ko'pchilik ustunlar yana almashtirildi. Masjid o'rtasida kichik gumbaz ostida kaltsiy-korbanat (ohaktosh) dan ishlangan qozon joylashgan, qozonga solingan suv ma'lum vaqtdan keyin iliq holga keladi, bu mo'jizani sirini shu davrda ma'lum bir odamlar bilgan. Aholini hayratga solish maqsadida qilingan bu ish Islom dinining mavqeini omma o'rtasida yanada oshirgan.



Qutlug' Murod Inoq madrasasi. O'tmishdagi voqealarni tarix sahifasiga muhrlagan saroy tarixchisi Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad Xivaqiy o'zining Dili g'aroyib asarida:-Xevaqlar ko'p marotaba vayron qilingan va qayta tiklangan. Janobi oliylarining (Olloqulixon) rahmatli otasi va joylari jannatda bo'lsin Abulg'oziy Muhammad Rahimxon va uning ukasi Qutlug' Murod inoq tomonidan hahar obod qilindi, ularning sa'yi harakatlari bilan katta madrasa (Qutlug' Murod inoq madrasasi

1812 y.) va katta gumbazli maqbara (Pahlavon Mahmud maqbarasi 1810-1825) barpo etildi- deb yozadi. O‘ymakor eshiklardagi yozuvlarga ko‘ra madrasa - maqbara 1804-1812 yillarda Xiva xoni Olloqulixonning amakisi Qo‘ng‘irot muzofotini hokimi, harbiy sarkarda Qutlug‘ Murod Inoq tomonidan qurilgan va bezatilgan.

Madrasa ikki qavatli qilib qurilgan bo‘lib, uning 81 ta hujrasi va 24634 tanob vaqf yeri bo‘lgan hamda ixchamgina darsxona va masjid, ichkarida maxsus quduq tagi-zamin (sardoba) bo‘lib shahar aholisi shu quduqdan suv ichishgan. Yangidan qurilgan shaharda ilk bor ikki qavatli madrasa qurayotgan xivalik ustalar albatta ma’lum nusxalardan o‘rnak olishga harakat qilganlar. Madrasa qurishda ustalar ancha mukammal Buxorodagi Abdulazizxon madrasasi tuzilishini asos qilib olishgan. Me’morlar mablag‘ni tejash maqsadida madrasa tuzilishini ancha soddalashtirib, unda yozgi ayvonlarni, qanotlardagi ikki katta xonani qurmaganlar, ularning o‘rniga oddiy hujralarni qurishgan. Xivalik ustalar eski tarhga yangiliklar kiritib, hovlidagi peshtoqlarga bezak berishgan. Madrasaning sharqiy peshtoqining ichkarisiga yozgi masjid qurilgan bo‘lib, masjid yuqorisida ikkinchi qavat balandligida yog‘och boloxona bor. Yangilik elementlari ularning kompozitsiyasidan ko‘rinib turibdi, shimoliy va janubiy boloxona g‘arbiy va sharqiy boloxonaga nisbatan keng bo‘lib, ustalar shu yo‘l bilan hovlini ko‘rkam qilganlar. Bino Xivadagi oldingi asrlarda qurilgan qal’asimon madrasalardan farq qilib, fasadi ancha dabdabali ko‘rinishga ega. Bunday natijaga peshtoqning buxorochoa shaklda besh qirrali ravoq va tokchalar bilan ishlanishi va turli bezaklarning ko‘pligi tufayli erishilgan. Ravoqlar atrofi rang-barang koshinlar bilan hoshiyalangan, xuddi shunday koshinlar bilan madrasa guldastalari qoplangan bo‘lib, peshtoq ichkarisidagi ganchkorlik san’ati namunalari unga husn bag‘ishlab turibdi. Bularning hammasi bino manzarasini bir oz o‘zgartirgan bo‘lsa-da, tuynuk-darchalar, bosh fasad ikki qanotini chegaralab turgan bo‘ydor qubbali guldastalar birgalikda binoga istehkom ko‘rinishini beradi. Yangi tarh asosida ustalar tashqi fasadlarni ishlashda biror yangilik kiritishga intilishgan bo‘lsa, bunday holni ichkarida sezmaymiz. Hatto masjid va darsxona nihoyatda sodda va hech qanday bezaksiz ishlangan, oddiy bezak namunalari miyonsaroy gumbazida va yozgi masjidning gumbazida uchratamiz. Madrasa darvozasi va

ichkaridagi masjid hamda darsxonaning o‘ymakor eshiklari diqqatga sazovordir. Har bir eshik nafis yog‘och o‘ymakorlikning ajoyib namunasidir. Madrasaning boshqa xonalari deyarli bir xil ko‘rinishdagi to‘g‘ri to‘rtburchak sahni bo‘lgan gumbazli hujralardan iborat. Hujra, eshik yuqorisidagi panjara darcha orqali yoritiladi. Hujralarda yana tokcha va supa bor bo‘lib, ba’zi hujralar ichiga yarim doira shaklida yog‘ochdan ikkinchi qavat qilingan.



Olloqulixon saroyi - Tosh hovli. Tosh hovli saroyi (80 x 80 metr) XIX asr me‘morchilik san‘atining yorqin namunasi bo‘lib, tashqi ko‘rinishi va qurilishi jihatidan Ko‘hna Ark saroyiga o‘xshab ketadi. Saroy 1830-1838 yillarda Xiva xoni Olloqulixon (1794-1842 yillarda yashagan) tomonidan qurdirilgan. Saroy tarixiy ma‘lumotlariga qaraganda turli uslublarda, qayta-qayta qurilgan. Ichan-qal‘aning sharqiy darvozasi yonidagi binolar bilan birgalikda yagona ansamblni tashkil etib bosh jamoat markazi shu yerga jalb qilingan. Saroy ulkan va hashamatli bo‘lib, uzoq muddatda qurilgan. Uni qurish uchun Xorazmning eng yaxshi ustalari, naqqoshlari, koshinpazlari safarbar qilingan. Tosh hovli saroyi baland devor burjlari va darvozalari bilan qo‘rg‘onni eslatadi. Olloqulixon bu saroyning qurish uchun katta tayyorgarlik ko‘rgan saroyning Tosh hovli deb atalishiga ham uning hashamatli va nihoyatda chiroyliligi, hamda devorlari pishiq g‘ishtdan terilganligi sabab bo‘lgan.

Saroy uchta katta hovli - ko‘rinishxona, mehmonxona va haramdan hamda beshta kichik hovli va 163 xona dan iborat. Yog‘och ustunlar, marmar toshlar, shiplardagi yozuvlar bizga saroy 8 yil davomida, ya’ni 1830-1838 yillarda qurib bitkazilganligini bildiradi. Ma’lum bo‘lishicha qurilish muddati bir necha davrga bo‘lingan. Dastavval haram alohida qurilgan, haram to‘g‘ri to‘rt burchak hovli va atrofdagi 1-2 qavatli ayvon xonalardan iborat bo‘lgan. Atrofi burjli qalin devor bilan o‘rab olingan. Tosh hovli saroyi yillar natijasida bir necha marta ta’mirlangan. 1982-1983 yillarda ayvon shiplari, 1976-1989 yillarda Haram ta’mirlanib, ta’mirlash ishlariga 551 ming 888 so‘m mablag‘ ajratilgan va sarflangan. 1997 yilda saroyning pastki qismlari qayta ta’mirlandi Tosh hovli saroyining Mehmonxona va Arzxona qismlari 2001 yili qayta ta’mirlanib, sayohatchilarga namoyish qilish maqsadida ochildi. Ushbu hovlilarda Devon begi, Mirzo va O‘tov inter’erlari joylashgan.



Olloqulixon Karvon saroyi va timi. 1831 yilda Ichan qal’aning sharqiy qismida, zahkash arig‘i oqava suvidan hosil bo‘lgan ko‘l hashar usuli bilan ko‘milib, uning o‘rnida katta bozor maydoni vujudga keltirildi. Xivada XIX asrning 30 yillarida barpo bo‘lgan bu bozorda don, meva, sovun, sham bozori bo‘lgan. Qator sartaroshxona va mayda savdo uylari bo‘lib, ularga yondosh joyda qullar sotilgan. Xivaning Buxoro, Eron va ayniqsa Rossiya bilan savdo aloqalarining rivojlanishi

natijasida 1833 yilda haramni qurib bitirgandan keyin Olloqulixon karvonsaroyini qurishga kirishdi. Bozorga yondosh qal'a devori yaqinida ikki qavatli Karvonsaroy qurilishi bilan yana bir bozor maydoni paydo bo'ldi. Keyinroq esa Karvonsaroyning oldiga yana gumbazli tim qurildi. Afsuski, shunday shinam maydon bir-bir yarim yildan so'ng Olloqulixon madrasasi qurilishi natijasida o'z shaklini yo'qotgan. Karvonsaroy va yopiq bozor (tim) Xiva xoni Olloqulixon tomonidan 1833 yilda qurilgan.



Karvonsaroy o'zini tashqi ko'rinishi bilan Buxorodagi Abdullaxon timiga (yopiq bozoriga) o'xshab ketadi. Karvonsaroy tashqi mamlakatlardan keladigan karvonlarni qabul qilishga moslab qurilgan bo'lib, uning ikkala g'arbiy va sharqiy darvozalari tuyalarda keltirilgan yuklarni bemalol Karvonsaroyga kirib chiqishni ta'minlagan. Karvonsaroy o'rtasida janubga qaratib solingan darvoza orqali savdo markaziga-savdo uyiga kirilgan. Savdo uyi ikki qavat qilib qurilgan bo'lib, 105 ta hujradan iborat. Pastki qavati savdogarlar uchun savdo rastasi vazifasini o'tagan, yuqori qavati esa-mehmonxona hisoblangan. Bino juda qulay va sodda rejalashtirilgan, u keng hovli va hovli atrofidagi ikki qavatli hujralardan iborat. Hamma hujralar hovli sahniga qaragan. Faqat fasadning janubiy qismidagi hujralarning ikkinchi qatori, xuddi madrasadagi kabi, maydoncha tomonga qaragan bo'lib, bir xil tuzilishdagi "balxi" gumbazli hujralar fasaddagi ravoqlar qatori bilan aniq belgilanib turadi. Hovliga olib o'tuvchi yo'l ikki tarafdan peshtoq bilan

chegaralangan. Mazkur bino mehmonxona, ombor va savdo rastalari xizmatini bajarishi qiyin bo'lgani uchun keyinroq karvon saroyning oldiga tim qurildi. Hozirgi ko'rinishida tim va karvonsaroy binolari bir butundek ko'rinadi, lekin bu binolarning devorlarida karvonsaroy peshtoqining qoldiqlarini, ravoqlarning pastki qismi va guldasta - minora qoldiqlarini ko'rish mumkin. Timning tarixi diqqatga sazovordir. Ikki qator mayda gumbazlar karvonsaroy darvozasi oldida kelib taqalgan. Xuddi shunday gumbaz timning g'arbiy tomonida ham bor. Xivaning qo'li gul ustalari gumbazli dolonlarni juda mohirlik bilan qurganlar. Gumbaz asoslari murakkab shaklda bo'lishiga qaramay, ustalar osonlik bilan o'ziga xos (goh to'rt burchak, goh trapetsiya shaklida, goh olti qirrali) konstruktiv asos topa bilganlar. Tim ichkarisi gumbazlardagi tuynuklar orqali yoritilgan. Shu davr talablari asosida chet ellik savdogarlar bir hujrani bir necha yilga ijruga olishgan. Doimiy harakatda bo'lgan karvonlar esa shu savdogarlarni mahsulot bilan ta'minlab turishgan. Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, ushbu binoda faqat mahalliy mollargina emas, balki rus, ingliz, eron va afg'on mollari ham sotilgan. Bozorda Xiva olachasi, ipak belbog'lari hamda Xorazm zargarlarning betakror zargarlik buyumlari, ingliz movuti, eronning ip aralash shoyilari, ipakli mollar, ko'rpa, kamar, buxori etik, xitoy chinnisi, qand, choy va shunga o'xshash turli tuman mayda-chuyda narsalarni uchratish mumkin bo'lgan. Bozordagi tartib va tosh-tarozini maxsus tayinlangan rais kuzatib turgan. Agar biror xiyonat sodir bo'lsa, u shu ondayoq gunohkorni darra bilan jazolagan. Karvonsaroyda maxsus devonxona bo'lib, kelib-ketuvchi savdogarlar, shuningdek bu maxkamada pul almashtiruvchi sarroflar, savdogarlar olib kelayotgan tovarlariga baho belgilaydigan maxsus amaldorlar xonasi bo'lgan. Bu yerda devonbegi darvozadan o'tgan mollar uchun tamg'a puli olgan va bu pul davlat g'aznasiga emas, 1835 yilda qurilgan Olloqulixon madrasasi kutubxonasini ta'minlashga sarflangan. Hozirgi kunda Karvonsaroy qadimgi an'analarni saqlagan holda Karvonsaroy savdo markaziga aylantirilgan.



Olloqulixon madrasasi. Xiva xoni Olloqulixon (1825-1842) Xiva shahrini iloji boricha Osiyoning eng chiroyli va koʻrkam shahriga aylantirish uchun koʻp qurilishlar qilgan. Nurab turgan eski madrasalarni buzdirib, yangidan pishiq gʻisht ishlatgan holda oʻz davrining yetuk ustalariga buyurib qayta qurdirgan. Shular qatorida oʻzi uchun Ichanqalʼaning sharqiy devori oʻrnida bir chiroyli madrasa qurdirgan. Madrasa trapetsiya shaklida qurilgan boʻlib, unda 99 hujra, yozgi va qishgi masjid, darsxona mavjud. Har bir hujrada bir eshik va uning ustida kichik darcha bor. Hujra pastiga chorsi gʻishtlar terilgan, devorlari ganch bilan suvalgan, tepasidagi “balxi” gumbazlarini ichi bezalmagan. Madrasadagi qishgi masjid va darsxona kabi katta xonalar ikki qavatli imoratlardek gumbazi uncha baland emas, katta ravoqlari, bezaksiz tekis devorlar, chuqur tokchalar bir oz beoʻxshov koʻrinadi. Madrasaning tashqi bezaklari butunlay boshqachadir. Roʻparasidagi Qutlugʻ murod inoq madrasasida oq va rangli ganch, bosma qolipli sirli koshin ishlatilgan boʻlsa, bu madrasada faqat sirli koshin ishlatilgan. Lekin koshinlarning naqshlari har-xil boʻlib, kulollar bu yerda joyning bezatiladigan oʻrniga qarab namoyonlarning shakli, ranglar quyugligi va oʻlchamlarini ustalik bilan tanlaganlar.



Polvon darvoza. Darvozaning hozirgi ko‘rinishi bir qancha ta‘mirlashlar natijasidir. Dastlab darvoza qal‘a devoridan bir oz tashqariga turtib chiqqan oddiy shaklga ega edi. Bu yerdan turib devor tashqarisini kuzatish ancha qulay bo‘lgan. Darvozaning ikki yonidagi burjlari shahar devori bilan tutashgan bo‘lib, yagona mudofaa istehkomiga qo‘shilgan edi. Eltuzarxon (1804-1806) tomonidan darvoza ichkarisiga ko‘p gumbazli dolon (yo‘lak)ning qurilishi natijasida bu joy bozor rastasi vazifasini ham bajara boshladi. Karvonsaroy va Tim qurilgandan so‘ng (1832-1833) darvozaning bozor sifatidagi ahamiyati ancha pasaydi. Lekin 1835 yilda Olloqulixon madrasasi qurilishi munosabati bilan darvozaning g‘arbiy qismi qayta qurildi va uning oldidan ikki gumbazli va peshtoqli yangi hammom qad ko‘taradi. Davr o‘tishi bilan darvoza ana shunday o‘zgarib bordi: - ko‘pchilik qismi yangilandi, yangi imoratlar qurilishi natijasida darvoza tamoman o‘zgacha ko‘rinishga ega bo‘ldi. Hammom allaqachon yarim vayronaga aylangan, rastalar huvillab qolgan edi. Qadimgi darvozadan faqat poydevorlar saqlanib qolgan. Lekin darvoza hali ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Polvon darvoza qayta qurilgan bo‘lsa–da, uning darvoza arxitekturasi qadimgi ustalar mahoratining namunasi sifatida qadrlanadi. Bino hajmi va o‘lchamlari konstruktsiya imkoniyatlar e‘tibori bilan eng qulay me‘yorda belgilangan. Imorat yanada pishiq bo‘lsin uchun ravoqlar kergi kuchi oz bo‘lgan shaklda yasalgan. G‘ishtlar qatoriga yog‘och to‘siqlar kiritilib, gumbaz og‘irligi bir qancha ravoqlarga taqsimlanadi. Kichik gumbazlar uchun g‘ishtni “davra” va “balxi” uslubda teriladi. Ayni vaqtda bino ichkarisi suvoq qilingan. Bir

necha gumbaz ustidan tushib turgan yorug'lik yarim qorong'i yo'lakni yoritib, yanada jozibador qiladi. Olloqulixon madrasasining janubiy devori yaqinida pog'onasimon ko'tarilgan ulkan gumbazlari uzoqdan ko'zga yaqqol tashlanadi, bu yerda gumbaz va ravoqlar binoning umumiy tuzilishini ko'rsatib turibdi.



Abdullaxon madrasasi. Qutlug' Murod inoq madrasasiga yondosh qilib 1855 yilda qurilgan ushbu madrasa Xiva xoni Abdullaxon (1855-1855) sharafiga uning o'limidan keyin onasi tomonidan qurilgan. Madrasa peshtoqini hisobga olmaganda madrasaga bezak berilmagan, juda sodda uslubda qurilgan bo'lib, darsxona va unga yondosh bir qavatli hujralar qatorasiga joylashgan, madrasa o'rtasida quduq bor.

2.3. “Ming gumbaz shahri minoralari” kompozitsiyasini bajarilish jarayoni.

Manzara janrida qadimiy Xiva shahrining ko`rinishlaridan bir qismini kompozitsiyasini ishlashni tanlab, bitiruv malakaviy ish ustida ish boshlashimga ilmiy rahbarim Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasida o`qituvchisi Sherov Dilshodning maslahatlari bilan qo`l urdim.

Bitiruv malakaviy ishning mavzusi «Ming gumbaz shahri minoralari» mavzusida manzara ishlash deb nomlandi.

Qadimiy va hamisha navqiron Xiva jahonning eng qadimiy va muqaddas shaharlaridan biridir. Xiva shahrini go`zalligi barcha shaharlar go`zalligidan ustindir. Xalqaro sayyohlik markazlardan biri sanalgan Xiva bejiz butun dunyoda ochiq osmon ostidagi muzey sifatida e`tirof etilmagan.

Muqaddas tuprog`imizda qad ko`targan Ichan-qal`adagi tarixiy obidalar majmuasi va ularni turli sehrli ranglarda bezashda qo`llanilgan mo`jizasimon bezaklar turlari necha asrlar davomida odamzodni lol qoldirib kelmoqda.

Men uchun Xivaning tarixiy-madaniy yodgorliklari, obidalari maftunkor rang-barang Ona tabiatidan go`zalroq makon yo`q deb o`ylayman. Shuning uchun Ichan-qal`a ko`rinishini bitiruv malakaviy ish mavzusi qilib oldim.

Dastlab buning uchun bir necha bor Xiva shahriga borib, Ichan-qal`a ko`chalarida joylashgan qadimiy inshootlarni, shuningdek minoralarni kuzatib, naturadan qalamda va rang tasvirda etudlar chizdim. Qalamtasvir va rangtasvirda bajarilgan etudlarni ilmiy rahbarim Sherov Dilshodga ko`rsatdim. Ilmiy rahbarim etudlarni sinchiklab ko`rib, manzara kompozitsiyasi, manzaraning bir necha turlari, bu janrda kompozitsiya yaratish uchun rang tasvir sohasida mukammal ilmiy tushuncha va maslahatlar berdilar.

Manzara kompozitsiyasi eskizlari ustida izlanishlar davom etdi va bajarilgan ishlardan yaxshi namunalarni “Tasviriy san`at va muhandislik grafikasi kafedrasida” metodik birlashmasiga taqdim etdim.

Eskizlar variantlari kafedrada ma`qullandi va tasdiqlandi.

Tasdiqlangan eskizlar va etudlar asosida asosiy Ichan-qal`aning umumiy

ko`rinishini yahlit bir kompozitsiyasini tasvirlashga qo`l urdim.

Ilmiy rahbarim Sherov Dilshod ishni bajarish jarayonini kuzatib kerakli maslahat va ilmiy fikrlar berib turdilar. Bitiruv malakaviy ishim muvaffaqiyatli yakunlandi.

Buning uchun ilmiy rahbarim Dilshod Sherovga o`z minnaddorchiligimni bildiraman.

Manzara janridagi bitiruv malakaviy ishimda kasb-hunar o`quvchilarini tasviriy san`atga qiziqtirish, tabiat go`zalligini his etish, uni asrab avaylash, estetik didlarini shakllantirish maqsadga muvofiq deb bilaman.

Iqtidorli o`quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirib zamon talabiga javob beradigan barkamol yoshlarni tarbiyalashni o`zim uchun sharaflı burch deb bilaman.

Shuning uchun oliygohda olgan bilimlarimni o`qituvchilik faoliyatimda amal qilaman.

Har qanday san`atning turi insonga o`z ta`sirini o`tkazib unda dunyoqarashni shakllantiradi. Tasviriy san`atni kelajak avlodga etkazish uchun biz ham o`zimizning shijobatli va g`ayratli mehnatimiz bilan o`z hissamizni qo`shishimiz zarur deb bilaman.

XULOSA

Mustaqilligimizning eng sharafligi, buyuk yutuqi shundaki, u bizga o'z qadriyatimizni anglashga imkon berdi. Tariximizga xolisona baxo berish payti keldi.

Mustaqil O'zbekistonga yuksak saviyali, madaniyatli, bilimli fuqarolar suv bilan xavodek zarur. Shunday ekan yoshlarimizni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashda, ularda yuksak bilim, madaniyatni rivojlantirishda avlodlarimiz tarixi bilan tanishtirish juda muxim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda yoshlarni go'zallikka oshno qilishni juda erta boshlash lozim. Shuning uchun xam tomoshabin uchun badiiy asar yaratish rassomning ijodida tasodifiy bo'lmashligi kerak. Chunki tasviriy san'at asari estetik tarbiyalashda ahamiyatli bo'libgina qolmay, balki axloqiy tarbiyada xam asosiy o'rin egallaydi. Ayniqsa, tasviriy san'at yoshlarni milliy g'urur va milliy istiqloq mafkurasini shakllantirishda, vatanparvarlik va baynalminal tarbiyada do'stlik va o'zaro yordam g'oyalarni tashkil toptirishda katta kuchga ega. Ushbu malakaviy – bitiruv ishimda tasviriy san'atning asosini tashkil etuvchi kompozitsiya xaqida to'xtalib o'tdim. Natijada tasviriy san'atning, xususan rangtasvirda kompozitsiyaning mamlakatimiz madaniyati, san'ati va uning xayotda tutgan o'rnini, bugungi kun nuqtai – nazaridan qanday ko'rinishga ega ekanligi xususida fikr bildirildi.

Malakaviy – bitiruv ishimning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, maqsadi va vazifalariga to'xtalib o'tdim.

Asosiy qismda esa tasviriy san'at maktablarida manzara janrida kompozitsiyaning tutgan o'rnini, tasviriy san'at darslarida manzara janrida ishlashning o'qitish texnologiyasi to'g'risida ma'lumotlarni yoritib o'tdim.

Keyingi o'qituvchilik faoliyatimda ushbu soxadagi ijodiy ishimni davom qildirib, o'quvchilarning badiiy madaniyati va estetik didini oshirishda bor kuchimni ayamay xizmat qilaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Ta'lim to'g'risidagi», «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi to'g'risida» «O'zbekiston» nashriyoti. T.,1998.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси «Ўзбекистон» нашриёти. T.,1991
3. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, сиёсат, мафкура. «Ўзбекистон » нашриёти. T.,1993.
4. Atamuradov S., Xusanov S., Rametov J. Ma'naviyat asoslari.– T.,2000.
5. Karimov I. Ma'naviy yuksalish yo'lida. – T.,1998.
6. Karimov I. Milliy mafkura haqida.– T.,2000.
7. Erkaev A. Ma'naviyat – Millat nishoni. – T.,1997.
8. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari.T.1998.
9. Абдурахманов Г.М. Рангасвир ва композиция.- T, 1995.
- 10.Boymetov B. “Qalamtasvir”. Darslik 1 - qism. Toshkent, 2006.
- 11.Boymetov B. “Qalamtasvir asoslari”. O'quv qo'llanma. Toshkent, 1999.
- 12.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (1-qism). T., 2002.
- 13.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir (2-qism). T., 2003.
- 14.Abdirasilov S.,Tolipov N. “Rangtasvir” Toshkent , 2005.
- 15.Tolipov N., Abdirasilov S., Oripova N. Rangtasvir. T., 2006.
- 16.Р.Хасанов., Мавзу асосида расм чизиш жараёнида эстетик тарбия. Ўқитувчилар учун қўлланма. Тошкент. Ўқитувчи. 1980.

Elektron ta'lim resurslari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.Uz
5. www.nbgf.intal.uz.